

VAZIRLAR MAHKAMASINING 2025-YIL 13-SENTABRDAGI 578-SON QARORI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI

**OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIGA O‘QISHGA QABUL QILISH JARAYONLARINI  
TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TASDIQLASH  
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi **Qonuni** ijrosini ta’minlash hamda oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash, o‘qishdan chetlashtirish va akademik mobilligini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;

Oliy ta’lim tashkilotlarining magistraturasiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom **2-ilovaga** muvofiq;

Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarini o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq;

Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining akademik mobilligini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **5-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **6-ilovaga** muvofiq ba’zi qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi respublika oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha qabul parametrlariga takliflarni shakllantirishda quyidagilarni nazarda tutsin:

bilimli va iqtidorli yoshlarning ta’lim olishlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlarini oshirib borish;

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda hamda uch yoshgacha farzandi bor ayol talabalarining ta’lim olishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida masofaviy ta’lim shakli bo‘yicha qabul parametrlarini bosqichma-bosqich oshirib borish.

5. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A. Sharipov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2025-yil 13-sentabr,  
578-son

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qaroriga  
1-ILOVA

**Oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi **Qonuniga** muvofiq O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan davlat oliy ta’lim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda — oliy ta’lim tashkilotlari)ning bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom o‘qishga qabul qilish jarayonlari alohida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadigan oliy ta’lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriatiga quyidagi parametrlar asosida o‘qishga qabul qilinadi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjatlari bilan tasdiqlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha davlat granti, jumladan, ta’lim granti asosidagi davlat buyurtmasi parametrlari;

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Davlat komissiyasi) tomonidan tasdiqlangan oliy ta’lim tashkilotlari, ta’lim shakllari va tillar kesimidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha umumiy qabul parametrlari.

3. Oliy ta’lim tashkilotlarining mavjud ta’lim shakllariga abituriyentlar Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon) natijalariga ko‘ra to‘plangan ballarning reyting tizimi bo‘yicha o‘qishga qabul qilinadi.

Kirish imtihonlari quyidagi ikki bo‘limdan iborat bo‘ladi:

birinchi bo‘lim — barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun majburiy uchta fan — ona tili, matematika va O‘zbekiston tarixi fanlaridan test sinovlari;

ikkinchi bo‘lim — abituriyent tanlagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos ikkita fandan test sinovlari yoki test sinovlari bilan bir qatorda o‘tkaziladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos kasbiy (ijodiy) imtihonlar.

Davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida qabul parametrlari doirasida hamda qabul parametrlaridan tashqari abituriyentlarni o‘qishga qabul qilish Davlat komissiyasi tomonidan ushbu Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim tashkilotlariga qabul teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va tanlov asosida amalga oshirilib, kirish imtihonlarida eng yuqori ball to‘plagan abituriyentlar ta’lim grantlari bo‘yicha birinchi navbatda qabul qilinadi. Qolgan abituriyentlar to‘plagan ballari reytingi asosida belgilangan to‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlari doirasida qabul qilinishi ta’minlanadi.

Tanlov:

davlat granti uchun — har bir bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim tashkilotining umumiy qabul parametriga nisbatan davlat granti kvotasining ulushi asosida;

to‘lov-kontrakt uchun — har bir oliy ta’lim tashkiloti bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlari, ta’lim tillari va ta’lim shakllariga ko‘ra alohida;

maqsadli qabul uchun — har bir ta’lim yo‘nalishi va hudud bo‘yicha (hududlar kesimida maqsadli qabul parametrlari tasdiqlangan taqdirda) alohida o‘tkaziladi.

Bunda oliy ta’lim tashkilotining umumiy qabul parametriga nisbatan davlat grantining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari kesimida ulushini taqsimlash jarayonida qoldig‘i 0,5 dan kichik bo‘lgan sonlar 0 ga, 0,5 va undan yuqori bo‘lgan sonlar esa 1 ga yaxlitlanadi.

4. Abituriyent umumta’lim tashkilotida qaysi tilda tahsil olganidan qat’i nazar, test sinovlari va kasbiy (ijodiy) imtihonni oliy ta’lim tashkilotida o‘qiydigan tilda topshiradi.

5. Ayrim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha test sinovlari bilan bir qatorda kasbiy (ijodiy) imtihonlar o‘tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar o‘tkaziladigan ta’lim yo‘nalishlari ro‘yxati tizimida oliy ta’lim tashkilotlari bo‘lgan vazirlik va idoralar takliflari asosida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

6. Maxsus sirtqi ta’lim shakliga faqat mos yoki turdosh bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘rta maxsus, kasb-hunar, kasbiy ta’lim ma’lumotiga va bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga muvofiq soha, kasb, lavozimlarda kamida uch yillik amaliy ish stajiga (pedagogik yo‘nalishlar uchun pedagogik stajga) hamda ishlab turgan soha tashkilotlaridan berilgan tavsiyanomaga ega bo‘lgan, kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)dan muvaffaqiyatli o‘tgan abituriyentlar hisobidan o‘qishga qabul qilinadi.

## **2-bob. Qabul komissiyalari faoliyatini tashkil etish va qabul jarayonlariga tayyorgarlik ko'rish**

7. Oliy ta'lim tashkilotida o'qishga qabul jarayonlarini tashkil etish bo'yicha kamida 9 nafar malakali mutaxassislardan iborat tarkibda qabul komissiyasi (keyingi o'rinlarda — qabul komissiyasi) tuziladi.

Qabul komissiyasi tarkibi oliy ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Bunda oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) lavozimi bo'yicha qabul komissiyasi raisi hisoblanadi.

Qabul komissiyasi va a'zolarining vazifalari komissiya raisi tomonidan belgilanadi.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari hamda oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari) joylarda kirish imtihonlarini (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon) o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi.

## **3-bob. Abituriyentlarni ro'yxatdan o'tkazish**

9. Oliy ta'lim tashkilotining bakalvriat ta'lim yo'nalishlariga quyidagilar abituriyent sifatida ro'yxatdan o'tishi mumkin:

umumiy o'rta ta'lim (o'n bir yillik ta'lim) tashkilotini tugatgan;

o'rta maxsus ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim) tashkilotini tugatgan;

boshlang'ich kasbiy ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich kasbiy ta'lim) tashkilotini tugatgan;

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi **Qonuni** kuchga kirguniga (2020-yil 24-sentabr) qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) tashkilotini tugatgan va bu haqidagi tegishli hujjatga ega bo'lgan shaxslar.

10. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul jarayonida abituriyentlarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish hamda yakuniy natijalarni olish O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining (keyingi o'rinlarda — Agentlik) rasmiy veb-sayti orqali ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Bunda abituriyentlar:

birinchi bosqichda har yili 5-iyundan 25-iyunga qadar (25-iyun kuni ham) test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, ta'lim tili va test topshirish hududini hamda kirish imtihonlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon bo'lsa, ushbu imtihonni topshiradigan oliy ta'lim tashkilotini;

ikkinchi bosqichda test sinovi to'liq yakunlangandan so'ng 15 kun davomida oliy ta'lim tashkiloti, bakalvriat ta'lim yo'nalishi, ta'lim shakli va tanlov ustuvorligini tanlaydi.

Abituriyentlarga test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi va ketma-ketligi bir xil bo'lgan beshtagacha bakalvriat ta'lim yo'nalishi hamda ta'lim shakllarini tanlash huquqi beriladi. Bunda kirish imtihonlari tarkibida kasbiy (ijodiy) imtihon mavjud bo'lganda, abituriyentlar muayyan bakalvriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha beshtagacha oliy ta'lim tashkilotini tanlashi mumkin bo'ladi.

Abituriyentlarga ro'yxatdan o'tish jarayonida belgilagan tanlov ustuvorligi ("ta'lim granti" yoki "ta'lim yo'nalishi") bo'yicha tanlagan bakalvriat ta'lim yo'nalishlari ketma-ketligida tanlovda ishtirok etish imkoniyati beriladi.

11. Ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchi abituriyentlar bir bosqichda — har yili 5-iyundan 25-iyunga qadar (25-iyun kuni ham) ro'yxatdan o'tkaziladi.

Bunda ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchi abituriyentlar mazkur muddat davomida oliy ta'lim tashkiloti, bakalvriat ta'lim yo'nalishi, ta'lim shakli va ta'lim tilini tanlaydi.

12. Fanlar majmuasida chet tili birinchi fan sifatida belgilangan ta'lim yo'nalishlariga qabul xorijiy tilni bilish bo'yicha kamida B2 darajasidagi milliy yoki xalqaro sertifikat asosida amalga oshiriladi.

13. Abituriyentlarni ro'yxatga olishda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining tugatgan ta'lim tashkiloti to'g'risidagi ma'lumotlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda tizimida umumiy o'rta va kasbiy ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralardan "Elektron hukumat" tizimining Idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali real vaqt rejimida olinadi.

Abituriyentlarning shaxsini tasdiqlovchi (pasporti yoki identifikatsiya ID-kartasi) hamda doimiy yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar Ichki ishlar vazirligidan real vaqt rejimida olinadi.

14. Abituriyentlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan muddatlar tugagandan so'ng ma'lumotlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Test sinovlarida ishtirok etishi uchun abituriyentlardan bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida to'lov undiriladi.

Bunda test sinovlari tashkil etilayotgan yilda ta'lim tashkilotlarini tugatgan abituriyentlar, nogironligi bo'lgan shaxslar (I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hamda nogironligi bo'lgan bolalar), to'liq davlat ta'minotidagi shaxslar, "Kambag'al oilalar reyestri" axborot modulida ro'yxatga olingan shaxslar va ularning farzandlari hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlardan test sinovida ishtirok etish uchun to'lov undirilmaydi.

To'lovni amalga oshirmagan abituriyentlarga test sinovlari va kasbiy (ijodiy) imtihonlarda ishtirok etish uchun ruxsatnoma shakllantirilmaydi.

16. Talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar oliy ta'lim tashkiloti qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

ushbu Nizomning 9-bandida qayd etilgan hujjatlardan birining aslini (ilovasi bilan birga);

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozga ega bo'lgan abituriyentlar imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjatning aslini.

#### **4-bob. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish**

17. Yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan ta'lim yo'nalishlari ro'yxati va ularga mos keluvchi fanlar majmuasiga muvofiq o'tkaziladi.

18. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarning asosiy maqsadi abituriyentlarning tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qish va keyinchalik ishlab ketish imkoniyatlarini aniqlash, ularning tanlangan fanlar bo'yicha bilim, kasbiy ko'nikmalarini (ijodiy va jismoniy qobiliyatlarini) baholashdir.

19. Kasbiy (ijodiy) imtihon har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi va o'qitish tili bo'yicha alohida o'tkaziladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar fanlar xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy, yozma, og'zaki shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan fanlar bo'yicha dastur, imtihonlar savollari va topshiriqlarining mazmuni umumiy o'rta (11-sinf negizida), o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari dasturlariga muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim.

20. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar har yili abituriyentlarni ro'yxatdan o'tkazish yakunlangandan boshlab 20-iyulga qadar (20-iyul kuni ham) oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi.

Bunda abituriyentlarning test sinovlari va kasbiy (ijodiy) imtihon topshirish vaqtlari bir kunga to'g'ri kelib qolmasligi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, tizimida oliy ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralar hamda Agentlik tomonidan muvofiqlashtiriladi.

21. Tizimida oliy ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirlik va idoralar rahbarlari hamda oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari) joylarda kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini, shu jumladan, imtihonlar o'tkaziladigan xonalarni ko'rgazmali vositalar, o'quv qurollari va ashyolar bilan ta'minlaydi.

22. Oliy ta'lim tashkilotida imtihonlar boshlanishidan bir hafta oldin rektorning (direktorning) buyrug'i bilan tegishli fanlar bo'yicha imtihonlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha kamida 3 nafar tajribali va malakali professor-o'qituvchilar hamda mutaxassislardan iborat tarkibda kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tuziladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq o'tkaziladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarga ajratiladigan vaqt qabul komissiyasining qarori bilan belgilanadi.

Abituriyentlarning yozma (amaliy) shaklda bajaradigan imtihon ishlari shifrlash orqali tekshiriladi va baholanadi.

23. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar ushbu Nizom talablariga muvofiq o'tkazilishi va imtihon jarayonlari videotasvirga olinishi uchun qabul komissiyasi hamda kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zolari mas'ul hisoblanadi.

24. Kasbiy (ijodiy) imtihon ishlari hamda jarayonlarining videotasvirlari qabul komissiyalarining maxsus xonalarida uch yil davomida saqlanadi va ushbu muddat o'tganidan so'ng belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

25. Qabul komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihonlar boshlanishidan kamida bir hafta oldin imtihon dasturi, baholash mezonlari, maslahatlar va imtihonlar jadvalini oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-sayti orqali e'lon qiladi.

Bunda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yagona kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturlari hamda baholash mezonlari tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

26. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar test sinovlari majmualaridagi fanning egallagan o'rniga qarab, belgilangan eng ko'p ballning 0 dan 100 foizgacha bo'lgan oralig'ida yagona ko'p balli tizim bo'yicha baholanadi.

Agar kasbiy (ijodiy) imtihon bakalavriat ta'lim yo'nalishi doirasidagi bir nechta mustaqil fanlar bo'yicha o'tkaziladigan bo'lsa, baholash uchun belgilangan ballarning umumiy miqdori har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqib, differensial tartibda uning tarkibidagi fanlarga bo'linadi.

27. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan binoga kirishda abituriyent lug'at, jadval, kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa yoki olib kirgan bo'lsa, shuningdek, kasbiy (ijodiy) imtihonlar davomida imtihon topshiriqlarini boshqa abituriyentga uzatsa yoki yordam bersa, kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun ajratilgan vaqt tugaganidan so'ng imtihon materiallarini topshirishdan bosh tortsa, imtihon materiallarini guruhdan tashqariga chiqarsa, kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkazish tartibini buzgan hisoblanadi va kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tomonidan dalolatnoma tuzilib, imtihondan chetlashtiriladi.

28. Tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga muvofiq fanlar majmuasidagi har bir fan bo'yicha imtihon natijalari kasbiy (ijodiy) imtihon xususiyatiga qarab, imtihon o'tkazilganidan keyin uch kun muddat ichida oliy ta'lim tashkiloti rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

29. Jadval bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarga (imtihon bosqichi yoki turiga) kelmagan abituriyentlar uchun qayta kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilmaydi, ular navbatdagi bosqich kirish imtihonlariga qo'yilmaydi hamda o'qishga qabul qilinmaydi.

30. Oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i bilan 3 nafardan kam bo'lmagan tarkibda sohaning yetuk mutaxassislari va oliy ta'lim tashkilotining tajribali xodimlari, professor-o'qituvchilaridan iborat apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zolarining kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Imtihonni qabul qilgan kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a'zosi apellyatsiya jarayonida qatnashib, o'z fikrini bildirish huquqiga ega.

Apellyatsiya shikoyatlari imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan uch kun muddat ichida ko'rib chiqiladi.

Abituriyent apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega. Apellyatsiya arizasining ko'rib chiqilish vaqti va joyi haqida abituriyentga kamida bir kun oldin xabar beriladi.

31. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari fanlar kesimida alohida imtihon qaydnomalariga kiritiladi.

Ushbu imtihon qaydnomalarining har biri kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi raisi va qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi hamda muhrlanadi.

32. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarning yakuniy natijalari qaydnomasi qabul komissiyasi raisi va mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi.

33. Kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari qabul komissiyasi tomonidan Agentlikning maxsus dasturiga kiritiladi hamda har yili 25-iyulga qadar kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari qaydnomalar asosida tekshirilib, qabul komissiyasi mas'ul kotibi tomonidan tasdiqlanadi.

### **5-bob. Test sinovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish**

34. Ta'lim yo'nalishlari ro'yxati, ularga mos keluvchi fanlar majmuasi, test topshiriqlari soni, baholash mezonlari va javoblar varaqasi namunasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda test sinovlari boshlanishidan kamida olti oy oldin rasmiy veb-sayti orqali e'lon qilinadi.

Fanlar majmuasi ona tili va adabiyot, matematika, fizika, kimyo, biologiya, tarix, geografiya, chet tili va huquqshunoslik fanlari bo'yicha shakllantiriladi.

Abituriyent ro'yxatdan o'tishda tanlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishining fanlar majmuasida chet tili fani mavjud bo'lsa, test sinovini ingliz, nemis, fransuz, ispan, italyan, turk, xitoy, koreys, yapon, arab, fors, dariy, urdu, uyg'ur va hindiy tillaridan birida topshirishi mumkin. Bunda mazkur chet tillaridan biri abituriyent tomonidan ro'yxatdan o'tishning birinchi bosqichida tanlanadi.

35. Test topshiriqlari umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturlari asosida tuziladi.

Test topshiriqlari ro'yxatdan o'tishda test topshirish tili sifatida o'zbek yoki qoraqalpoq tilini tanlagan abituriyentlar uchun lotin alifbosida shakllantiriladi.

36. Test sinovlari Agentlik tomonidan mavjud ta'lim shakllari uchun har yili iyul-avgust oylarida, qoida tariqasida, kuniga ikki smenada o'tkaziladi.

Test sinovlarini o'tkazish va ro'yxatdan o'tishning ikkinchi bosqichini (abituriyent tomonidan oliy ta'lim tashkiloti, bakalavriat ta'lim yo'nalishi, ta'lim shakli va tanlov ustuvorligini tanlash) amalga oshirish muddatlari Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

37. Test sinovlari Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi 261-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi **nizomga** muvofiq o'tkaziladi.

38. Abituriyentning test sinovida to'plagan ballari haqidagi ma'lumot test sinovi o'tkazilgan kunning ertasiga, uning talabalikka tavsiya etilgani yoki etilmagani bo'yicha belgilangan tartibda tasdiqlangan tanlov natijasi ro'yxatdan o'tishning ikkinchi bosqichi (abituriyent tomonidan oliy ta'lim tashkiloti, bakalavriat ta'lim yo'nalishi, ta'lim shakli va tanlov ustuvorligini tanlash) to'liq yakunlangandan so'ng bir hafta muddat ichida Agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

### **6-bob. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish uchun belgilangan imtiyozlarni qo'llash**

39. Mehribonlik uylari, kichik hajmli bolalar uylari, bolalar shaharchalari, SOS — bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylarining bitiruvchilari bo'lgan, shuningdek, vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalar hamda ota-onalik huquqidan mahrum qilingani, bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgani sababli ota-ona yoki yolg'iz ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, shuningdek, topib olingan (tashlab ketilgan) ota-onasi noma'lum bo'lgan bolalar hamda nikohda bo'lmagan onaning (yolg'iz onaning) vafot etgani natijasida boquvchisiz qolgan bolalar (yigirma besh yoshga to'lganlar bundan mustasno) uchun oliy ta'lim tashkilotlariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy soniga qo'shimcha ravishda bir foizgacha davlat granti asosidagi qabul parametrlari ajratiladi.

Mazkur qabul parametrlari Davlat komissiyasi tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari, ta'lim shakllari kesimida taqsimlanadi.

40. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan o'tkaziladigan tegishli "Tarbiyachi" va "Hamshira" respublika tanlovlari g'oliblari Davlat

komissiyasining qarori bilan mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz qo'shimcha davlat granti asosida qabul qilinadi.

41. "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oila farzandlari uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ajratilgan davlat granti asosidagi qabul parametrlariga nisbatan 10 foizgacha bo'lgan miqdorda qo'shimcha davlat granti bo'yicha qabul parametrlari ajratiladi.

"Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oila farzandlari uchun ajratiladigan davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari kesimidagi taqsimoti Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Bunda muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim grantiga o'tish ballining 80 foizi va undan yuqori ball to'plagan "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oilalarning farzandlari ajratilgan davlat granti asosidagi qabul parametrlari doirasida ballar ketma-ketligiga qat'iy rioya qilingan holda talabalikka tavsiya etiladi.

Mazkur imtiyoz:

abituriyent ro'yxatdan o'tishda tanlagan birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga nisbatan qo'llanadi;

muayyan o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kirishda Davlat komissiyasi tomonidan ta'lim grantiga belgilangan minimal o'tish balidan past ball to'plagan abituriyentlarga nisbatan qo'llanmaydi.

42. "B" va undan yuqori darajadagi "A level" hamda 32 va undan yuqori ballga teng "International Baccalaureate" sertifikatlariga ega bo'lgan abituriyentlar sertifikat berilgan fan kirish imtihonlari tarkibida mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlariga bazaviy to'lov-kontrakt miqdori asosida qo'shimcha ravishda o'qishga qabul qilinadi.

Bunda abituriyent tomonidan "International Baccalaureate" sertifikatlari Agentlikka elektron tarzda (IB Secure Website orqali) yuborilishi lozim.

"College Board" tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan "Scholastic Aptitude Test — SAT" xalqaro imtihonida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 75 foizi — 1200 ball va undan yuqori natijadagi sertifikatga ega abituriyentlar sertifikat berilgan fan kirish imtihonlari tarkibida mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlariga qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

Bunda abituriyent tomonidan "Scholastic Aptitude Test — SAT" sertifikatlari Agentlikka elektron tarzda (DI kod orqali) yuborilishi lozim.

43. Imtihonsiz qo'shimcha ravishda davlat granti asosida talabalikka tavsiya etish imtiyoziga ega bo'lgan abituriyentlar Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq ta'lim shaklidan qat'i nazar, ro'yxatdan o'tishda imtiyoz amal qiladigan doirada, tanlagan birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

Bunda xalqaro sport musobaqalari g'oliblari jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga sport turlarining soha bo'yicha mos kelishiga qat'iy rioya qilingan holda qo'shimcha davlat granti asosida imtihonsiz o'qishga qabul qilinadi.

44. Imtiyozlarni qo'llashda Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal o'tish ballariga qat'iy amal qilinadi.

45. Umumta'lim fanlari va chet tilidan milliy yoki xalqaro sertifikatlarning amal qilish muddatini hisobga olishda abituriyent ro'yxatdan o'tgan sana inobatga olinadi. Bunda:

umumta'lim fanlaridan B+, B, C+, C darajadagi milliy sertifikatga ega abituriyentlar ro'yxatdan o'tishning birinchi bosqichida ushbu sertifikatdan mutaxassislik fani uchun foydalanishni tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin;

sertifikatdan foydalanishni tasdiqlagan abituriyent ushbu fandan test sinovi topshirmaydi va unga ushbu fandan sertifikatdagi foizga mos ravishda ball beriladi;

sertifikatdan foydalanishni rad etgan abituriyent umumiy tartibda test sinovida ishtirok etadi;

sertifikat majburiy fanlardan biri bo'yicha olingan bo'lsa, abituriyent sertifikatdan mutaxassislik fani uchun foydalanishni tasdiqlashi yoki rad etishidan qat'i nazar, unga tegishli

majburiy fandan maksimal ball beriladi va abituriyent ushbu majburiy fan bo'yicha test sinovi topshirmaydi;

umumta'lim fanlari (o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti fanlari bundan mustasno) bo'yicha milliy yoki xalqaro sertifikatga ega abituriyentlar imtihonni qaysi tilda topshirishidan qat'i nazar, belgilangan tartibda imtiyoz qo'llaniladi.

46. Abituriyentlarda bir toifadagi ikki yoki undan ortiq imtiyoz mavjud bo'lsa, imtiyozlarning qo'llash ketma-ketligi Agentlik tomonidan belgilanadi.

47. Alohida qabul parametrlari doirasida tanlovda ishtirok etish uchun asos bo'luvchi imtiyozga ega abituriyentlar (nogironligi bo'lgan shaxslar hamda yigirma besh yoshga to'lmagan Mehribonlik uylari, kichik hajmli bolalar uylari, bolalar shaharchalari, SOS — bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylarining bitiruvchilari bo'lgan, shuningdek, vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalar hamda ota-onalik huquqidan mahrum qilingani, bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgani sababli ota-ona yoki yolg'iz ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, shuningdek, topib olingan (tashlab ketilgan) ota-onasi noma'lum bo'lgan bolalar hamda nikohda bo'lmagan onaning (yolg'iz onaning) vafot etgani natijasida boquvchisiz qolgan bolalar bundan mustasno) ular uchun ajratilgan alohida qabul parametrlari doirasida, tanlagan birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etadi. Bunda:

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi uchun tanlovni amalga oshirishda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etilmaydi;

birinchi oliy ta'lim tashkiloti sifatida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasini tanlagan abituriyentlar, istisno tariqasida, ikkinchi (tanlov) sifatida tanlagan oliy ta'lim tashkiloti (O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bo'lganda esa ketma-ketlik bo'yicha navbatdagi oliy ta'lim tashkiloti) uchun ajratilgan alohida qabul parametrlari doirasida tanlovda ishtirok etadi;

alohida qabul parametrlari doirasida tanlovda qatnashib, talabalikka tavsiya etilmagan abituriyentlar ro'yxatdan o'tishda tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha umumiy tartibda tanlovda ishtirok etadi.

48. Imtiyoz bilan davlat granti asosida talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlarga (keyingi muddatlarda) ushbu imtiyozdan takroran foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida talabalikka qabul qilingan abituriyentlarning ikkinchi marta mazkur ta'lim bosqichida davlat granti asosida oliy ta'lim olishiga ruxsat etilmaydi.

49. Imtiyozga ega bo'lgan abituriyentlar oliy ta'lim tashkilotlariga Davlat komissiyasi tomonidan har yili 1-mayga qadar tasdiqlanadigan oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriatiga o'qishga kirish uchun beriladigan imtiyozlarning yagona reyestriga muvofiq o'qishga qabul qilinadi.

50. Imtiyozga ega abituriyentlar to'g'risidagi ma'lumotlar har yili 1-iyunga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan Agentlikning maxsus axborot tizimiga kiritib boriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar, jumladan, ko'zi ojiz shaxslarning ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining tegishli axborot tizimidan real vaqt rejimida olinadi.

51. Agentlik har yili abituriyentlarni ro'yxatga olishning ikkinchi bosqichi yakunlangandan so'ng imtihonsiz qo'shimcha davlat granti asosida talabalikka tavsiya etish imtiyoziga ega bo'lgan abituriyentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Davlat komissiyasiga taqdim etadi.

52. Yangi joriy etiladigan imtiyozlarning qo'llanish tartibi va mexanizmi majburiy tartibda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Agentlik bilan kelishiladi.

### **7-bob. Maqsadli qabul parametrlariga o'qishga qabul qilish**

53. Maqsadli qabul parametrlari ajratilgan ta'lim yo'nalishlarini tanlagan abituriyentlar har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha dastlab maqsadli, so'ngra umumiy qabul parametrlari doirasida tanlovda ishtirok etadi.

Bunda:

davlat organlari va tashkilotlari hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari har yili 15-maydan 1-iyunga qadar kadrlarga

bo'lgan o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, maqsadli qabul kvotasiga takliflarni ta'lim yo'nalishlari kesimida Davlat komissiyasiga taqdim etadi;

Davlat komissiyasi mavjud davlat buyurtmasi parametrlaridan kelib chiqib, hududlar va ta'lim yo'nalishlari kesimida maqsadli qabul parametrlarini tasdiqlaydi;

maqsadli qabul parametrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoyishi bilan tasdiqlanadigan davlat oliy ta'lim tashkilotlariga bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlari doirasida ajratiladi;

maqsadli qabul parametrlari doirasida talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar bilan manfaatdor tuman (shahar) hokimligi, tegishli davlat organi (tashkiloti) hamda oliy ta'lim tashkiloti o'rtasida to'rt tomonlama shartnoma tuziladi;

maqsadli qabul parametri doirasida tahsil olgan talabani ish bilan ta'minlash va uning o'qishni yakunlagandan so'ng muayyan hududda (tashkilotda) ishlab berishini monitoring qilish har bir kadrlar buyurtmachilari (tegishli davlat organi yoki tashkiloti) zimmasiga yuklanadi.

54. Abituriyent maqsadli qabul parametrlari doirasida talabalikka tavsiya etilgan taqdirda, umumiy qabul parametrlari doirasida tanlovda ishtirok etmaydi.

55. Oliy ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan qabul parametrlari tarkibida hududlar kesimida maqsadli qabul parametrlari tasdiqlangan ta'lim yo'nalishlariga qabul muayyan hududda doimiy yashaydigan (ro'yxatga olingan doimiy yashash joyi bo'yicha), belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tib, kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)dan muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlar hisobidan amalga oshiriladi.

## **8-bob. Ko'zi ojiz abituriyentlarni o'qishga qabul qilishning o'ziga xos jihatlari**

56. Ko'zi ojizlar toifasiga quyidagi abituriyentlar kiradi:

a) umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich kasbiy ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich kasbiy ta'lim), shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining **Qonuni** kuchga kirguniga (2020-yil 24-sentabr) qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) tashkilotini tugatganligi haqidagi hujjatga hamda ko'zi bo'yicha 1-guruh nogironligi to'g'risida belgilangan shakldagi ma'lumotnomaga ega bo'lgan shaxslar;

b) ko'zi bo'yicha 2-guruh nogironligi to'g'risida belgilangan shakldagi ma'lumotnomaga ega bo'lgan quyidagi shaxslar:

maxsus maktab-internatlar tomonidan ko'zi ojizlar uchun berilgan o'rta ta'lim (11-sinf negizida) yetuklik attestatiga ega bo'lgan;

imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashgan boshlang'ich kasbiy ta'lim tashkilotlari (kasb-hunar kollejlari) tomonidan ko'zi ojizlar uchun berilgan diplomga ega bo'lgan;

9 yillik ko'zi ojizlar maxsus maktab-internatida o'qigan va o'rta maxsus yoki kasb-hunar yoxud boshlang'ich kasbiy ta'lim tashkilotlari diplomiga ega bo'lgan.

57. Ko'zi ojiz abituriyentlar oliy ta'lim tashkilotlariga kirish imtihonlarini ta'lim yo'nalishlari bo'yicha fanlar majmuasiga mos keluvchi ko'p balli yoki besh balli baholash tizimi bo'yicha, an'anaviy shaklda topshiradilar.

58. Fanlar bo'yicha kirish imtihonlarini o'tkazish shakli (yozma yoki og'zaki) qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi.

59. Ko'zi ojiz abituriyentlar bilan tushuntirish ishlarini olib borish uchun qabul komissiyasi tomonidan maxsus mas'ul xodim ajratiladi.

60. Qabul komissiyasi raisi kirish imtihonlarini o'tkazish uchun fanlar bo'yicha komissiyalarni tashkil etadi.

61. Fan bo'yicha kirish imtihonlarining dasturlari va baholash mezonlari umumiy o'rta ta'limning umumta'lim fanlari dasturlariga to'la muvofiq holda tuziladi va qabul komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

62. Fan komissiyasi tarkibiga ko'zi ojizlar yoki nogironlar jamiyatining vakili kiritiladi.

63. Qabul komissiyasi ko'zi ojiz abituriyentlar uchun kirish imtihonlari fanlari bo'yicha maxsus tuzilgan jadvalga binoan maslahatlar tashkil etadi.

64. Ko‘zi o‘jiz abituriyentlar uchun kirish imtihonlari har yili iyul oyida qabul komissiyalari tomonidan belgilanib, e‘lon qilingan muddatlarda o‘tkaziladi.

65. Oliy ta‘lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari) joylarda ko‘zi o‘jiz abituriyentlarning kirish imtihonlarini o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta‘minlaydi.

66. Ko‘zi o‘jiz abituriyentlarning kirish imtihonlarini ushbu Nizom talablariga muvofiq o‘tkazilishi va imtihon jarayonlari videotasvirga olinishi uchun qabul komissiyasi hamda fan bo‘yicha imtihon komissiyasi a‘zolari mas‘ul hisoblanadi.

Imtihon jarayonlarining videotasvirlari qabul komissiyalarining maxsus xonalarida uch yil saqlanadi va ushbu muddat o‘tganidan so‘ng belgilangan tartibda yo‘q qilinadi.

67. Oliy ta‘lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug‘i bilan ko‘zi o‘jiz abituriyentlar uchun o‘tkaziladigan imtihonlar davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha 3 nafardan kam bo‘lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

68. Apellyatsiya shikoyatlari imtihon natijalari e‘lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan uch kun muddat ichida ko‘rib chiqiladi.

69. Oliy ta‘lim tashkilotlari tomonidan ko‘zi o‘jiz abituriyentlar va kirish imtihonlari natijalari haqidagi ma‘lumotlar Davlat komissiyasiga kiritish uchun kirish imtihonlari yakunlangandan so‘ng uch kun muddat ichida Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etiladi.

70. Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan (ko‘p balli tizimda baholanganda — maksimal ballning 55 foizi va undan yuqori ball olgan, besh balli baholash tizimida baholanganda — “3”, “4” yoki “5” baho olgan) abituriyentlar Davlat komissiyasi qaroriga muvofiq oliy ta‘lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug‘i bilan tanlovsiz, qo‘shimcha davlat granti asosida talabalikka qabul qilinadi.

Abituriyent tomonidan ushbu Nizomning **56-bandiga** muvofiq ko‘zi o‘jizlar toifasiga kirishini tasdiqlovchi hujjatlarning asli (nogironlik to‘g‘risida belgilangan shakldagi ma‘lumotnomaning asli ko‘rsatiladi) qabul komissiyasiga taqdim etilmasligi oliy ta‘lim tashkiloti tomonidan ushbu abituriyentni o‘qishga qabul qilish bo‘yicha buyruqning rasmiylashtirilmasligiga asos bo‘ladi.

### **9-bob. Abituriyentlarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish, o‘qish uchun to‘lov tartibi va miqdori**

71. Abituriyentlarni oliy ta‘lim tashkilotlariga to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish belgilangan tartibda tasdiqlangan qabul parametrlari doirasida yagona qabul qoidalari asosida kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon)ning ballar reytingi bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat komissiyasi tomonidan abituriyentlarni to‘lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etish to‘g‘risida qaror qabul qilingandan so‘ng oliy ta‘lim tashkiloti bilan yuridik yoki jismoniy shaxslar o‘rtasida belgilangan tartibda shartnoma (kontrakt) rasmiylashtiriladi.

Belgilangan namunadagi shartnoma blankalari Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “kontrakt.edu.uz” elektron platformasi orqali oliy ta‘lim tashkiloti tomonidan abituriyentlarning talabalikka tavsiya etilgani e‘lon qilingan kundan boshlab beriladi.

To‘lov-kontrakt asosida o‘qishga tavsiya etilgan abituriyentlar uchun belgilangan to‘lov miqdorining kamida 25 foizi har yili 15-sentabrdan yoki Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatdan kechiktirilmasdan to‘lanishi lozim.

Shartnoma shartlari va tomonlarning majburiyatlari, ularning amalga oshirilishi tartibi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

72. Oliy ta‘lim tashkilotlari mavjud ilmiy-pedagogik salohiyati va talabalar uchun sifatli ta‘lim jarayonini tashkil etish imkoniyatini beradigan moddiy-texnik bazasidan hamda tanlov va to‘plangan ballar miqdoridan kelib chiqib, umumiy belgilangan qabul parametrlaridan tashqari qo‘shimcha (keyingi o‘rinlarda — qo‘shimcha qabul) va tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida abituriyentlarni o‘qishga qabul qilishi mumkin.

73. Oliy ta‘lim tashkilotlari qo‘shimcha qabulni Davlat komissiyasi qarori bilan belgilangan qabul ko‘rsatkichlariga muvofiq to‘plagan ballari Davlat komissiyasi tomonidan

belgilanadigan minimal balldan kam bo'lmagan va asosiy qabul chegaralariga 4 ballgacha yetmagan abituriyentlar orasidan ballar ketma-ketligiga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshiradi.

Bunda to'lov-kontrakt miqdori amalda o'rnatilgan bazaviy to'lov-kontrakt miqdoriga nisbatan quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

1,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 1,5 barobari;

1,06 balldan 2,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 2,0 barobari;

2,06 balldan 3,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 2,5 barobari;

3,06 balldan 4,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 3,0 barobari.

Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda ushbu miqdorlar bo'yicha to'lov-kontrakt shartlarining birinchi o'quv yili uchun kamida 50 foizi bajarilgandan so'ng abituriyent oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi.

74. Kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon)da to'plagan ballari Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan kam bo'lmagan, belgilangan qabul parametrlari doirasida hamda qo'shimcha qabul asosida qabul qilinmagan va o'qish istagini bildirgan abituriyentlarga birinchi o'quv yilida amalda o'rnatilgan to'lov-kontrakt miqdoriga nisbatan Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt miqdorida to'lovni amalga oshirish sharti bilan o'qishga kirish huquqi beriladi.

Bunda Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi oliy ta'lim tashkilotlariga kirish uchun belgilangan qabul chegarasidan kam ball to'plagan abituriyentlar uchun tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt miqdori muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun belgilangan to'lov-kontrakt miqdorining 50 foizi miqdorida belgilanishi mumkin.

Tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qish istagini bildirgan abituriyent Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda to'lov-kontrakt shartlarining birinchi o'quv yili uchun kamida 50 foizini bajargandan so'ng oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi.

Tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan talaba o'qishning birinchi bosqichida talabalar safidan chetlashtirilgan taqdirda, o'qishini tiklashida tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt miqdorining qolgan qismini to'lashi talab etiladi.

75. Oliy ta'lim tashkilotlariga qo'shimcha va tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan talabalar birinchi o'quv yilini muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng keyingi o'quv yilidan boshlab umumiy belgilangan tartibda o'qishini davom ettiradi.

### **10-bob. O'qishga qabul qilish tartibi**

76. Quyidagi holatlarda abituriyentlarning oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirish uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etishiga ruxsat etilmaydi va o'qishga qabul qilinmaydi:

test sinovida ishtirok etmagan (test sinovlari bilan bir qatorda o'tkaziladigan kasbiy (ijodiy) imtihonlarda ishtirok etganligidan qat'i nazar);

kasbiy (ijodiy) imtihonlarda (yoki bir turida) ishtirok etmagan (test sinovida ishtirok etganligidan qat'i nazar);

oliy harbiy ta'lim tashkilotlariga hujjat topshirib, talabalikka tavsiya etilgan;

“Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” ta'lim yo'nalishiga kirishda kasbiy (ijodiy) imtihonlarda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ballning 33,3 foizidan kam ball to'plagan.

Mazkur tartib qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan imtiyoz asosida kirish imtihonlaridan (yoki bir turidan) ozod etilgan abituriyentlarga nisbatan muayyan imtihon (yoki turi) bo'yicha qo'llanmaydi.

77. Tanlov kirish imtihonlarining (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon) fanlar majmuasi va undagi fanlar ketma-ketligining mosligi, abituriyent belgilagan tanlov ustuvorligi va bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ketma-ketligi asosida o'tkaziladi.

Bunda kirish imtihonlari (kasbiy (ijodiy) imtihon, test sinovlari) natijalariga ko'ra bitta bakalavriat ta'lim yo'nalishi (ta'lim shakli va ta'lim tilini inobatga olgan holda) bo'yicha oxirgi qabul o'rni uchun ikki yoki undan ko'p abituriyentning to'plagan umumiy ballari teng bo'lib qolganda, ushbu teng balli abituriyentlarning barchasi mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos ravishda davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etiladi.

78. Test sinovlari natijalari bo'yicha tanlovlar quyidagi tartibda o'tkaziladi:

a) "Ta'lim granti" ustuvorligini tanlagan abituriyentlar uchun:

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi va unga tanlagan ikkinchi — beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan ikkinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi va unga tanlagan uchinchi — beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi va ikkinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim granti asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan uchinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi va unga tanlagan to'rtinchi va beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi — uchinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim granti asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan to'rtinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi va unga tanlagan beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi — to'rtinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim granti asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi;

abituriyent birinchi — beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlaridan biriga ta'lim granti asosida talabalikka tavsiya etilgan taqdirda, unga tanlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha to'lov-kontrakt asosida tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi — beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim granti asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmagan taqdirda, tanlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari doirasida to'lov-kontrakt asosida mazkur bandning "a" kichik bandi **ikkinchi — oltinchi xatboshilarida** keltirilgan ketma-ketlik bo'yicha tanlovda ishtirok etadi;

b) "Ta'lim yo'nalishi" ustuvorligini tanlagan abituriyentlar uchun:

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti yoki to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi va unga tanlagan ikkinchi — beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan ikkinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti yoki to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi va unga tanlagan uchinchi — beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi va ikkinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan uchinchi bakalavriat

ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti yoki to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi va unga tanlagan to'rtinchi va beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi — uchinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan to'rtinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti yoki to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi va unga tanlagan beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi — to'rtinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim granti yoki to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi.

Abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi-beshinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmagan taqdirda, uning test sinovi natijalari birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi.

Beshtadan kam bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlagan abituriyentlar, o'zlari tanlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida mazkur bandeda belgilangan tartibga mos ravishda tanlovda ishtirok etadi.

79. Davlat komissiyasining abituriyentlarni oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish to'g'risidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab oliy ta'lim tashkilotlari:

bir hafta muddatda abituriyentlarning darslarga qatnashishiga ruxsat berish to'g'risidagi buyruq (farmoyish);

ushbu Nizomning 9-bandida qayd etilgan hujjatlar oliy ta'lim tashkiloti qabul komissiyasiga taqdim etilgandan so'ng talabalar safiga qabul qilish haqidagi buyruqlarni rasmiylashtiradi.

To'lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlarni 2-sentabrdan boshlab darslarga qatnashishga ruxsat etish to'g'risida oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i (farmoyishi) rasmiylashtiriladi.

To'lov-kontrakt asosida abituriyentlarni o'qishga qabul qilish yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan o'qish uchun shartnomada belgilangan to'lov miqdori har yili 15-sentabrdan yoki Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlardan kechiktirilmay to'langandan so'ng, oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Abituriyent tomonidan ushbu Nizomning 9-bandida qayd etilgan hujjatlar qabul komissiyasiga taqdim etilmasligi oliy ta'lim tashkilotining ushbu abituriyentni o'qishga qabul qilmasligiga asos bo'ladi.

80. Abituriyent tomonidan taqdim etilgan (topshirilgan) hujjatlarning qalbakiligi aniqlangan taqdirda, abituriyent kirish imtihonlaridan (talabalikka qabul qilingan bo'lsa, oliy ta'lim tashkiloti talabalari safidan) chetlashtiriladi hamda bu haqda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qilish organlari xabardor qilinadi.

### **11-bob. Xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish**

81. Xorijiy fuqarolar oliy ta'lim tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan suhbat natijasiga ko'ra to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi.

Xorijiy fuqarolar oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan bir o'quv yilida, qoida tariqasida, ikki marotaba o'qishga qabul qilinishi mumkin.

82. Oliy ta'lim tashkilotlariga umumiy o'rta yoki o'rta maxsus, kasbiy ta'lim, kasb-hunar ta'limi ma'lumotiga yoki unga tenglashtirilgan ma'lumotga ega xorijiy fuqarolar qabul qilinadi.

83. Xorijiy fuqarolarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda muayyan oliy ta'lim tashkiloti tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda mustaqil belgilanadi,

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

84. Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilingan xorijiy fuqarolarni o‘qitish ta’lim dasturlarida nazarda tutilgan tillarda olib boriladi.

85. O‘qishni muvaffaqiyatli tugatgan xorijiy fuqaroga belgilangan namunadagi oliy ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat (diplom) beriladi.

## **12-bob. Yakunlovchi qoida**

86. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qaroriga  
2-ILOVA

## **Oliy ta’lim tashkilotlarining magistraturasiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi **Qonuniga** muvofiq O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan davlat oliy ta’lim tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda — oliy ta’lim tashkilotlari)ning magistraturasiga o‘qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom o‘qishga qabul qilish jarayonlari alohida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadigan oliy ta’lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Oliy ta’lim tashkilotlarining magistraturasiga quyidagi parametrlar asosida o‘qishga qabul qilinadi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjatlari bilan tasdiqlangan davlat grantlari asosidagi qabul parametrlari;

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Davlat komissiyasi) tomonidan tasdiqlangan oliy ta’lim tashkilotlari va tillar kesimidagi magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha qabul parametrlari.

3. Oliy ta’lim tashkilotlarining magistraturasida o‘qitish tili belgilangan qabul parametrlari doirasida hujjatlar qabul qilingunga qadar vazirlik va idoralar takliflariga muvofiq Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

4. Magistraturaga o‘qishga qabul qilish jarayonlari oliy ta’lim tashkiloti qabul komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — qabul komissiyasi) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bunda magistraturaga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha qabul komissiyasi mas’ul kotibining o‘rinbosari tayinlanadi.

5. Abituriyent tamomlagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos yoki turdosh magistratura mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilinadi.

Abituriyent tamomlagan muayyan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi negizidagi magistratura mutaxassisligi mos mutaxassislik hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) har yili 1-iyulga qadar oliy ta’lim tashkilotlari magistraturasiga qabul qilish bo‘yicha turdosh oliy ta’lim yo‘nalishlarining ro‘yxatini tasdiqlaydi hamda Vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali e’lon qiladi.

#### **2-bob. Abituriyentlarni ro‘yxatdan o‘tkazish**

6. Magistraturaga tanlovlar boshlanishidan bir oy oldin qabul komissiyasi magistraturaga qabul qilish muddatlari, mutaxassisliklar nomlari va ajratilgan o‘rinlar haqidagi axborotni oliy ta’lim tashkilotining rasmiy veb-sayti orqali e’lon qiladi.

7. Abituriyentlar oliy ta’lim tashkilotlari magistraturasiga o‘qishga kirish uchun Vazirlikning rasmiy veb-sayti yoki O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan biri (keyingi o‘rinlarda — elektron platforma) orqali ro‘yxatdan o‘tadi.

Abituriyentlar har yili 1-iyuldan 30-iyulgacha (30-iyul kuni ham) ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Abituriyentlar ro'yxatdan o'tish uchun quyidagi hujjatlarni elektron platformaga yuklaydi:

a) oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat nusxasi (yoki diplomdan ko'chirma nusxa — oliy ta'lim tashkilotlarini davlat granti bo'yicha o'qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova nusxasi.

Bunda 2020/2021 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tashkiloti tomonidan berilgan diplom ma'lumotlari (o'rtacha balli bilan) Vazirlikning "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish — HEMIS" axborot tizimida avtomatik ravishda shakllantirilishi sababli ushbu toifadagi diplom va uning ilovasini elektron platformaga yuklash talab etilmaydi;

b) xorijiy tilni bilish bo'yicha belgilangan darajadagi sertifikat nusxasi, qonunchilik hujjatlariga muvofiq tanlovdan tashqari magistraturaga kirish bo'yicha imtiyozga ega abituriyentlar bundan mustasno.

Bunda xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikatlar quyidagi darajalarda talab etiladi:

xorijiy tillar yo'nalishlari bo'yicha — kamida S1 darajasida;

gumanitar, biologik va turdosh fanlar, matematika va statistika, biznes va boshqaruv, huquq, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar, jurnalistika va axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim sohalari bo'yicha — kamida V2 darajasida;

boshqa ta'lim sohalari hamda madaniyat va sport mutaxassisliklari bo'yicha — kamida V1 darajasida;

v) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq imtiyozga ega bo'lgan abituriyentlarning imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjat nusxasi.

8. Magistraturaga qabul bo'yicha ro'yxatdan o'tgan abituriyentlarning hujjatlari har yili 10-avgustgacha qabul komissiyalari tomonidan ko'rib chiqiladi va ularning arizalari qabul qilingani elektron platformadagi shaxsiy kabinetlari orqali ma'lum qilinadi.

Arizasi qabul qilinmagan abituriyentlarga arizani qabul qilishni rad etish sababi ko'rsatilgan holda elektron platformadagi shaxsiy kabinetlari orqali ma'lum qilinadi.

9. Elektron platforma orqali ro'yxatdan o'tgan abituriyentlar arizasi holatini o'zlarining shaxsiy kabineti orqali kuzatib boradi.

10. Abituriyent tomonidan belgilangan muddatda ro'yxatdan o'tishda elektron platformaga talab etilgan ma'lumotlar va hujjatlar asliga mos hamda to'liq belgilangan talablarga muvofiq kiritilganda, qabul komissiyasi tomonidan hujjatlarni qabul qilish rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **3-bob. Tanlovni o'tkazish**

11. Magistraturaga davlat granti va to'lov-kontrakt asosida, abituriyentlarning bakalavriat diplomi bo'yicha to'plagan ballari o'rtacha ko'rsatkichining ketma-ketligiga ko'ra Davlat komissiyasi tomonidan o'qishga qabul qilinadi.

Magistraturaga qabul tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi va Vazirlik tomonidan belgilangan turdosh (magistraturaga qabul bo'yicha) oliy ta'lim yo'nalishlari ro'yxati bo'yicha bakalavr darajasiga hamda xorijiy tilni bilish bo'yicha belgilangan darajadagi sertifikatga ega bo'lgan shaxslar o'rtasida tanlov asosida amalga oshiriladi.

Tanlov har bir oliy ta'lim tashkiloti bo'yicha magistratura mutaxassisligi, o'qitish tili va shakliga ko'ra alohida o'tkaziladi. Ayrim magistratura mutaxassisliklari bo'yicha hududlar kesimida, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari kesimida maqsadli qabul parametrlari tasdiqlangan taqdirda, tanlov har bir hudud, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari (oliy ta'lim tashkiloti) bo'yicha alohida o'tkaziladi.

12. Magistraturaga qabul barcha uchun teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, bakalavriat diplomi bo'yicha to'plagan ballari o'rtacha ko'rsatkichi eng yuqori bo'lgan abituriyentlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinishi ta'minlanadi. Qolgan abituriyentlar bakalavriat diplomi bo'yicha to'plagan ballari o'rtacha ko'rsatkichi ketma-ketligiga ko'ra belgilangan to'lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlari doirasida qabul qilinadi.

Ajratilgan qabul parametrlari doirasida eng oxirgi abituriyentning tanlov baliga teng ko'rsatkichga ega abituriyent (abituriyentlar) ham mos ravishda qo'shimcha o'rin asosida talabalikka tavsiya etiladi.

13. Ko'rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo'yicha I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarni magistraturaga qabul qilishda ularning xorijiy tilni bilish to'g'risida milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lishi talab etilmaydi.

14. Magistraturaga o'qishga qabul qilishda ko'zi ojiz abituriyentlar toifasiga quyidagilar kiradi:

a) ko'zi bo'yicha 1-guruh nogironligi to'g'risida belgilangan shakldagi ma'lumotnomaga ega bo'lgan shaxslar;

b) ko'zi bo'yicha 2-guruh nogironligi to'g'risida belgilangan shakldagi ma'lumotnomaga ega bo'lgan quyidagi shaxslar:

maxsus maktab-internatlar tomonidan ko'zi ojizlar uchun berilgan o'rta ta'lim (11-sinf negizida) yetuklik attestatiga ega bo'lgan;

imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashgan boshlang'ich kasbiy ta'lim tashkilotlari (kasb-hunar kollejlari) tomonidan ko'zi ojizlar uchun berilgan diplomga ega bo'lgan;

9 yillik ko'zi ojizlar maxsus maktab-internatida o'qigan va o'rta maxsus yoki kasb-hunar yoxud boshlang'ich kasbiy ta'lim tashkilotlari diplomiga ega bo'lgan.

15. Ko'zi ojiz abituriyentlarning bakalavriat diplomi bo'yicha to'plagan ballari o'rtacha ko'rsatkichi 100 ballik reyting tizimi bo'yicha 71 ball va undan yuqori yoki "5" balli baholash tizimi bo'yicha "4" va undan yuqori bo'lganda, ular qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi.

16. "College Board" tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan "Scholastic Aptitude Test — SAT" xalqaro imtihonida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 75 foizi — 1200 ball va undan yuqori natija bo'yicha sertifikatga ega abituriyentlar sertifikat berilgan fanga mos va tamomlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos va turdosh magistratura mutaxassisliklariga qo'shimcha davlat granti asosida talabalikka qabul qilinadi.

Bunda abituriyent tomonidan "Scholastic Aptitude Test — SAT" sertifikatlari Vazirlikka elektron tarzda (DI kod orqali) yuborilishi lozim.

17. Imtiyozga ega bo'lgan abituriyentlar oliy ta'lim tashkilotlariga Davlat komissiyasi tomonidan har yili 1-mayga qadar tasdiqlanadigan oliy ta'lim tashkilotlarining magistraturasiga o'qishga kirish uchun beriladigan imtiyozlarning yagona reyestriga muvofiq o'qishga qabul qilinadi.

18. Vazirlik oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura mutaxassisliklariga qabul qilish natijalarini har yili 20-avgustga qadar Davlat komissiyasiga tasdiqlash uchun kiritadi.

19. Oliy ta'lim tashkilotida abituriyentlarning apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha qabul komissiyasi a'zolari, fakultetlar dekanlari va tajribali professor-o'qituvchilardan iborat tarkibda apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Abituriyent tanlov natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, natijalar e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida ariza bilan apellyatsiya komissiyasiga murojaat etishi mumkin. Apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish muddati ikki kundan oshmasligi lozim.

Abituriyent apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega. Apellyatsiya shikoyati ko'rib chiqiladigan kun va joyi haqida qabul komissiyasi tomonidan abituriyentga kamida bir kun oldin xabar beriladi.

#### **4-bob. O'qishga qabul qilish tartibi**

20. Davlat komissiyasining oliy ta'lim tashkilotlari magistraturasiga o'qishga qabul qilish to'g'risidagi qarori har yili 25-avgustgacha qabul qilinadi.

21. Talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatning asl nusxasi (yoki diplomdan ko'chirmaning asl nusxasi — oliy ta'lim tashkilotlarini davlat granti bo'yicha o'qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova;

xorijiy tilni bilish bo'yicha belgilangan darajadagi sertifikat nusxasi;  
qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozga ega bo'lgan abituriyentlar imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjatning asli.

Abituriyent tomonidan taqdim etilgan (topshirilgan) hujjatlarning qalbakiligi aniqlansa, abituriyent talabalikka qabul qilinmaydi (talabalikka qabul qilingan bo'lsa, oliy ta'lim tashkiloti talabalari safidan chetlashtiriladi) hamda bu haqda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qilish organlari xabardor qilinadi.

22. Davlat komissiyasining qarori asosida bir hafta muddatda abituriyentlarni davlat grantlari bo'yicha talabalar safiga qabul qilish haqidagi oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari)ning buyruqlari rasmiylashtiriladi.

23. Abituriyentlarni to'lov-kontrakt asosida magistratura mutaxassisliklariga tavsiya etish to'g'risida Davlat komissiyasining qarori qabul qilingandan so'ng oliy ta'lim tashkiloti bilan yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasida belgilangan tartibda shartnoma rasmiylashtiriladi.

Davlat komissiyasi tomonidan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilgan abituriyentlar uchun to'lov har yili shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Shartnoma shartlari va tomonlarning majburiyatlari, ularni amalga oshirish tartibi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

To'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan o'qish uchun belgilangan to'lov miqdori belgilangan tartibda to'langandan so'ng, oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Tanlov natijalariga ko'ra, belgilangan qabul parametrlari doirasida magistraturaga talabalikka tavsiya etilmagan abituriyentlar arizalariga muvofiq oliy ta'lim tashkilotlarining mavjud quvvatlari, moddiy-texnik bazasi hamda professor-o'qituvchilari tarkibini inobatga olib, Vazirlik bilan kelishilgan holda, oliy ta'lim tashkilotlarining qaroriga asosan qo'shimcha qabul parametrlari asosida magistraturaga o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Magistratura mutaxassisliklariga qo'shimcha qabul parametrlari asosida o'qishga qabul qilingan abituriyentlarning to'lov-kontrakt miqdori bir talabaga to'g'ri keladigan real xarajatlardan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkiloti tomonidan mustaqil belgilanadi.

25. Abituriyent tomonidan ushbu Nizomning **21-bandida** qayd etilgan hujjatlar qabul komissiyasiga taqdim etilmasligi oliy ta'lim tashkilotining uni o'qishga qabul qilmasligiga asos bo'ladi.

### **5-bob. Xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish**

26. Xorijiy fuqarolar oliy ta'lim tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan suhbat natijasiga ko'ra to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi.

Xorijiy fuqarolar oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan bir o'quv yilida, qoida tariqasida, ikki marotaba o'qishga qabul qilinishi mumkin.

27. Oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura mutaxassisliklariga bakalavriat ta'lim bosqichi ma'lumotiga yoki unga tenglashtirilgan ma'lumotga ega xorijiy fuqarolar qabul qilinadi.

28. Xorijiy fuqarolarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati tegishli magistratura mutaxassisligi uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda, muayyan oliy ta'lim tashkiloti tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda mustaqil belgilanadi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

29. Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilingan xorijiy fuqarolarni o'qitish ta'lim dasturlarida nazarda tutilgan tillarda olib boriladi.

30. O'qishni muvaffaqiyatli tugatgan xorijiy fuqarolarga belgilangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat (diplom) beriladi.

### **6-bob. Yakunlovchi qoida**

31. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

## Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida

### NIZOM

#### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi **Qonuni** va oliy ta'lim sohasiga oid qonunchilik hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi davlat oliy ta'lim tashkilotlariga (keyingi o'rinlarda — oliy ta'lim tashkilotlari) bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va ularni o'qishdan chetlashtirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va ularni o'qishdan chetlashtirish alohida qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadigan oliy ta'lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va ularni o'qishdan chetlashtirish bilan bog'liq jarayonlarni (shu jumladan, tegishli hujjatlarni ko'rib chiqish) muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanadi:

**mos ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar)** — oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'qishini ko'chirish va qayta tiklashda nomlanishi bir xil bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari (magistratura mutaxassisliklari);

**turdosh ta'lim yo'nalishlari** — kadrlar tayyorlash yo'nalishlari, o'quv rejalari va dasturlari mazmunan yaqin bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari. Bunda ularning ro'yxati Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi;

**o'qishni ko'chirish** — talabaning arizasiga muvofiq uning o'qishini bir oliy ta'lim tashkilotidan boshqasiga yoki bir oliy ta'lim tashkiloti doirasida bir ta'lim yo'nalishidan boshqasiga belgilangan tartibda Davlat komissiyasi yoki Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (tegishli vazirlik (idora)) yoxud oliy ta'lim tashkiloti qaroriga asosan ko'chirilishi;

**o'qishni ko'chirib tiklash** — sobiq talabaning arizasiga muvofiq uning o'qishining boshqa oliy ta'lim tashkilotida yoki bir oliy ta'lim tashkiloti doirasida boshqa bakalavriat ta'lim yo'nalishida davom ettirishi uchun belgilangan tartibda Davlat komissiyasi yoki tegishli vazirlik (idora) yoxud oliy ta'lim tashkiloti qaroriga asosan ko'chirib tiklanishi;

**o'qishni qayta tiklash** — sobiq talabaning arizasiga muvofiq uning o'qishining muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligida davom ettirishi uchun qayta tiklanishi.

5. Oliy ta'lim tashkilotlarining biridan boshqasiga talabalar o'qishini mos va turdosh ta'lim yo'nalishiga (mos mutaxassislikka), muayyan hududdagi oliy ta'lim tashkilotlarida mos va turdosh ta'lim yo'nalishi (mos mutaxassislik) mavjud bo'lmagan taqdirda turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishiga (mos bo'lmagan mutaxassislikka) ko'chirishga quyidagi holatlarda ruxsat beriladi:

talaba turmush qurishi munosabati bilan turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan hududdagi oliy ta'lim tashkilotiga o'qishni ko'chirish uchun murojaat qilganda;

davlat organlari xodimlarining ish joyi tegishli vazirlik va idoralar tomonidan o'zgartirilgan taqdirda, uning turmush o'rtog'i yoki voyaga yetmagan farzandi muayyan vazirlik yoki idora rahbari tavsiyasi asosida o'qishini ko'chirish uchun murojaat qilganda.

6. Oliy ta'lim tashkilotlari, tizimida oliy ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralar hamda Davlat komissiyasi qarorlari asosida talabalarning o'qishi ko'chirilishi yoki qayta tiklanishi mumkin.

7. Bir oliy ta'lim tashkiloti doirasida oliy ta'limning mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklar bo'yicha talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash shu oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

8. Mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklar bo'yicha bir oliy ta'lim tashkilotidan boshqasiga talabalar o'qishini ko'chirish va ko'chirib tiklash talabani qabul qilayotgan oliy ta'lim tashkiloti bo'ysunadigan vazirlik, idora qarori asosida amalga oshiriladi.

9. Quyidagi hollarda talabalar o'qishini ko'chirish va ko'chirib tiklash Davlat komissiyasi qarori bilan amalga oshiriladi:

bir vazirlik yoki idora yoxud turli vazirlik va idoralar tizimidagi oliy ta'lim tashkilotlariga oliy ta'limning turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishlariga, mos bo'lmagan mutaxassisliklarga, bir ta'lim dasturidan boshqa ta'lim dasturiga;

bir oliy ta'lim tashkiloti doirasida mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari mavjud bo'lmagan holatlarda turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishi va mos bo'lmagan mutaxassisliklarga;

respublikaning oliy harbiy yoki harbiylashtirilgan ta'lim tashkilotlaridan salomatligi tufayli o'qishdan chetlashtirilgan talabalarning o'qishini oliy ta'lim tashkilotlariga o'qigan ta'lim yo'nalishiga mazmunan mos va turdosh (kadrlar tayyorlash yo'nalishlari, o'quv rejalari va dasturlari mazmunan yaqin bo'lgan) ta'lim yo'nalishlariga to'lov-kontrakt asosida ko'chirib tiklash;

xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan davlat oliy ta'lim tashkilotlariga asosli sabablar ko'rsatilganda mos va turdosh ta'lim yo'nalishlariga to'lov-kontrakt asosida, istisno tariqasida, o'qishni ko'chirish.

10. Quyidagi holatlar fuqaroning o'qishini ko'chirish va qayta tiklash haqidagi arizasiga rad javobi berilishiga asos bo'ladi:

xorijiy davlatlarning akkreditatsiyaga ega bo'lmagan oliy ta'lim tashkilotlarida yoki ularning filiallarida o'qiganlarga;

oliy ta'lim tashkilotlarining markazlari, bo'limlari, o'quv-maslahat punktlari va boshqalarda o'qiganlarga;

birinchi kursning birinchi semestriga o'qishni ko'chirishga (talabaga kasallik tufayli akademik ta'til berilgan holatlar, o'qigan ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lmaganda, ko'chirib tiklash holatlari bundan mustasno);

oliy ta'lim tashkilotida mos (turdosh) ta'lim yo'nalishi (mos mutaxassislik) yoki ta'lim shakli mavjud bo'lmasa;

to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilganlar to'lovni belgilangan muddatda amalga oshirmaganda;

talabani shaxsiy yig'majildi (akademik ma'lumotnoma) belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda;

oliy ta'lim tashkilotiga davlat granti asosida ko'chirish va qayta tiklashda davlat granti asosida ta'lim oluvchilar soni (qabul parametrlari) doirasida bo'sh o'rinlar mavjud bo'lmasa;

oliy ta'lim tashkiloti moddiy-texnik bazasining imkoniyati cheklanganda;

maqsadli qabul qilinganlar boshqa ta'lim yo'nalishi yoki ta'lim shakliga yoxud boshqa oliy ta'lim tashkilotiga;

bir ta'lim shaklidan maxsus sirtqi ta'lim shakliga hamda maxsus sirtqi ta'lim shaklidan boshqa ta'lim shakliga;

talaba O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinib, qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olgan yoki tahsil olayotgan bo'lsa (mazkur qo'shma dasturning o'zi bundan mustasno);

qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa holatlarda.

Talabani o'qimagan semestrda keyingi semestrda o'qishga tavsiya etishga ruxsat berilmaydi.

11. Talabalarning o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) va qayta tiklashni rasmiylashtirishda oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) belgilangan tartibda o'quv rejalari va dasturlardagi mavjud akademik qarzlarni yoki farqlarni topshirish tartibi va muddatlarini (joriy semestr davomida), o'qitish kursi (semestri) hamda o'qishga qabul qilishning qonunchilikda belgilangan boshqa shartlarini belgilaydi.

Bunda talabani o'qishni muayyan kursdan (semestrda) davom ettirishi uchun undan quyidagilar talab etiladi:

a) talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimida — o‘quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo‘yicha farqlar 4 tadan oshmasligi lozim;

b) talabalar o‘quv yuklamasi hajmini aniqlashning shartli birliklari (kreditlar)ni o‘tkazish va jamlash tizimida — talaba o‘qishi ko‘chirilayotgan ta‘lim yo‘nalishi (mutaxassislik)ning namunaviy o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha GPA ko‘rsatkichi 2,4 va undan yuqori bo‘lishi lozim.

ushbu talabalar bajarilmagan holatda talabaga uning arizasiga muvofiq namunaviy o‘quv rejasidagi fanlar farqini (GPA ko‘rsatkichini) inobatga olgan holda, o‘qishini quyi kursdan (semestrдан) davom ettirishga ruxsat berilishi mumkin.

12. To‘lov-kontrakt asosida talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklashda to‘lov-kontraktni tuzish tartibi va shartlari, jumladan, to‘lov miqdorlari va muddatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

13. Talabalar o‘quv yuklamasi hajmini aniqlashning shartli birliklari (kreditlar)ni o‘tkazish va jamlash tizimida aniqlangan fanlar farqi (akademik qarzdorlik, o‘zlashtirilmagan kredit) ushbu kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to‘lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda, to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng o‘zlashtiriladi (qayta o‘zlashtiriladi).

Akademik ta‘tildan belgilangan muddatda qaytgan talabaga fanlar (kreditlar) farqi aniqlangan taqdirda, bepul bir martalik o‘zlashtirish imkoniyati beriladi.

## **2-bob. Oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarini o‘qishini ko‘chirish**

14. Oliy ta‘lim tashkilotlariga talabalar o‘qishini ko‘chirish (ko‘chirib tiklash) bo‘yicha arizalarni ro‘yxatdan o‘tkazish Vazirlikning rasmiy veb-sayti yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan biri (keyingi o‘rinlarda — elektron platforma) orqali bir o‘quv yilida ikki marta:

kuzgi semestr o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin — 15-iyuldan 5-avgustgacha (5-avgust kuni ham);

bahorgi semestr o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin — 10-yanvardan 20-yanvargacha (20-yanvar kuni ham) elektron platforma orqali amalga oshiriladi.

Bahorgi semestr o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin talabalar o‘qishini bir oliy ta‘lim tashkilotidan boshqasiga ko‘chirib tiklash to‘g‘risidagi arizalar qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

15. O‘qishini ko‘chirish (ko‘chirib tiklash) istagini bildirgan fuqarolar elektron platformaga o‘zining shaxsiy identifikatsiya ma‘lumotlarini kiritadi va o‘ziga tegishli quyidagi hujjatlarni yuklaydi:

ushbu Nizomning **5-bandida** nazarda tutilgan holatlarni (sabablarni) asoslovchi hujjatlar nusxasi;

reyting daftarchasi yoki belgilangan shakldagi akademik ma‘lumotnoma yoxud transkript nusxasi.

16. Bahorgi semestr o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin — 10-yanvardan 20-yanvargacha (20-yanvar kuni ham) talabalar o‘qishini ko‘chirish to‘g‘risidagi arizalar oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug‘i bilan tashkil etiladigan hududiy ishchi guruhlari tomonidan qabul qilinishi ham mumkin.

17. Oliy ta‘lim tashkilotlariga talabalar o‘qishini ko‘chirish (ko‘chirib tiklash) bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan ariza tegishliligiga ko‘ra elektron platforma orqali oliy ta‘lim tashkilotiga yoki tizimida oliy ta‘lim tashkilotlari bo‘lgan vazirlik va idoralar yoxud Davlat komissiyasiga yuboriladi.

18. Oliy ta‘lim tashkilotlari talabalarini o‘qishini ko‘chirish (ko‘chirib tiklash) to‘g‘risidagi arizalarni ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish:

kuzgi semestr o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin — 6-avgustdan 30-avgustgacha (30-avgust kuni ham);

bahorgi semestr o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin — 21-yanvardan 10-fevralgacha (10-fevral kuni ham) amalga oshiriladi.

Bunda:

a) bir oliy ta'lim tashkiloti doirasida mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklar bo'yicha talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash to'g'risidagi arizalar oliy ta'lim tashkiloti tomonidan ko'rib chiqilib, qaror qabul qilinadi va bu haqda talabgorga elektron platforma orqali ma'lum qilinadi;

b) mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklar bo'yicha bir oliy ta'lim tashkilotidan boshqasiga talabalar o'qishini ko'chirish va ko'chirib tiklash to'g'risidagi arizalar:

tegishli vazirlik (idora) tomonidan ko'rib chiqilib, qaror qabul qilinadi va bu haqda talabgorga elektron platforma orqali ma'lum qilinadi;

ijobiy hal etilgan taqdirda, tegishli vazirlik va idoralar oliy ta'lim tashkilotiga o'qishi ko'chirilishi (ko'chirib tiklanishi) ruxsat etilgan talabalar ro'yxati ilova qilingan xat yo'llaydi;

v) ushbu Nizomning **9-bandida** ko'rsatilgan holatlar bo'yicha arizalar Davlat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

Arizalar ko'rib chiqilib, ijobiy hal etilgan taqdirda, Davlat komissiyasi tomonidan oliy ta'lim tashkilotiga o'qishi ko'chirilishi (ko'chirib tiklanishi)ga ruxsat etilgan talabalar ro'yxati ilova qilingan xat yuboriladi.

19. O'qishning barcha shakllarida oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo'yicha davlat grantlari o'rinlariga ko'chirishga davlat grantlari asosida tahsil olgan talabalar arizasiga ko'ra oliy ta'lim tashkilotlarida tegishli o'quv yilidagi qabul parametrlarida belgilangan davlat grantlarining soni doirasida ruxsat etiladi.

Ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchi sifatida hamda nogironligi bo'lgan shaxslar, yetim bolalarga ajratilgan qabul parametrlari doirasida davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar o'qishini oliy ta'limning mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklariga ushbu Nizomning **5-bandiga** muvofiq davlat granti asosida ko'chirishga yoki oliy ta'lim tashkiloti va ta'lim yo'nalishi o'zgarmagan holda ta'lim shaklini o'zgartirishga ruxsat etiladi.

Sport musobaqalari g'olibi sifatida imtiyoz bilan oliy ta'lim tashkilotlariga davlat granti asosida kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga qabul qilingan talabalarga:

ushbu Nizomning **5-bandiga** muvofiq o'qishini sirtqi ta'lim shaklidagi mos va turdosh ta'lim yo'nalishiga (sirtqi ta'lim shakli mavjud bo'lgan taqdirda) davlat granti asosida ko'chirishga;

oliy ta'lim tashkiloti va ta'lim yo'nalishi o'zgarmagan holda sirtqi ta'lim shaklida (sirtqi ta'lim shakli mavjud bo'lgan taqdirda) davlat granti asosida o'qishini davom ettirishga ruxsat beriladi.

Boshqa hollarda o'qishni ko'chirish to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

20. O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining o'zaro kelishuvi asosida tashkil etilgan qo'shma ta'lim dasturlarida tahsil olayotgan talabalar o'qishini ko'chirish Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 6-iyuldagi 421-son **qaroriga** muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda:

o'qishni ko'chirish to'g'risidagi arizalar talaba o'qishi ko'chirilishi so'ralayotgan oliy ta'lim tashkiloti tomonidan qabul qilinib, ko'rib chiqiladi va talaba tahsil olgan oliy ta'lim tashkiloti bilan kelishilgan holda qaror qabul qilinadi;

arizalarni qabul qilish hamda ko'rib chiqib, qaror qabul qilish 15-iyuldan 30-avgustgacha (30-avgust kuni ham) bo'lgan muddatda amalga oshiriladi;

arizalarni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan oliy ta'lim tashkiloti tomonidan ariza beruvchiga yozma ravishda javob beriladi.

### **3-bob. Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan talabalar o'qishini ko'chirish**

21. Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan talabalar o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) to'g'risidagi arizalar har yili 15-iyuldan 5-avgustgacha (5-avgust kuni ham) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining (keyingi o'rinlarda — Agentlik) rasmiy veb-sayti orqali ro'yxatdan o'tkaziladi.

22. Ro'yxatdan o'tkazilgan arizalar Agentlikning rasmiy veb-sayti orqali tegishlilik bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlariga yuboriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan arizalarning ushbu Nizomga muvofiqligi hamda ko'chirilishi so'ralayotgan ta'lim yo'nalishining talaba tahsil olgan ta'lim yo'nalishiga mazmunan mos yoki turdosh ekanligi oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tekshiriladi.

Tekshirish natijasiga ko'ra ariza qabul qilinishi tasdiqlanadi yoki rad etiladi. Arizani qabul qilish rad etilgan taqdirda, oliy ta'lim tashkiloti tomonidan Agentlikning rasmiy veb-saytidagi talabani shaxsiy kabineti orqali rad etish sababi ma'lum qilinadi.

23. Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan davlat oliy ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) istagini bildirgan fuqarolar o'qishi ko'chirilayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining muayyan ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirish fanlari bo'yicha, o'qiydigan tilida maxsus sinov (test, kasbiy (ijodiy) imtihon) (keyingi o'rinlarda — maxsus sinov) topshiradi.

Maxsus sinovlar davlat oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilishda belgilangan tartib asosida o'tkaziladi. Jumladan, kasbiy (ijodiy) imtihonlar muayyan oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi va Agentlikning maxsus tizimiga kiritib boriladi.

Maxsus sinovlar bo'yicha o'tish ballari tizimida oliy ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralarning takliflariga asosan Vazirlik tomonidan har yili 15-iyulga qadar tasdiqlanadi va rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

24. Maxsus sinovlar o'tgan o'quv yili uchun (ko'chirilayotgan o'quv yiliga nisbatan) belgilangan tartibda tasdiqlangan respublika oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos test sinovlari topshiriladigan fanlar majmuasi, test topshiriqlari soni va baholash mezonlariga muvofiq o'tkaziladi.

25. Maxsus sinovlar Vazirlik bilan kelishilgan holda Agentlik tomonidan belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

26. Test sinovlari Agentlik tomonidan o'tkazilib, natijalar kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari bilan umumlashtirilgan holda bir hafta muddatda Agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va oliy ta'lim tashkilotlariga yuboriladi.

27. O'tkazilgan maxsus sinovlar natijalariga ko'ra:

o'tish baliga teng va undan yuqori ball to'plagan talabalarning o'qishi muayyan ta'lim yo'nalishiga belgilangan bazaviy to'lov-kontrakt asosida ko'chirilishiga ruxsat etiladi;

o'tish balidan past ball to'plagan talabalar arizalariga ko'ra qo'shimcha va tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin.

To'plagan ballari Davlat komissiyasi tomonidan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirishda belgilanadigan minimal balldan kam bo'lmagan va o'tish baliga 4 ballgacha yetmagan talabalar arizalariga ko'ra qo'shimcha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Bunda to'lov-kontrakt miqdori amalda o'rnatilgan bazaviy to'lov-kontrakt miqdoriga nisbatan quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

1,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 1,5 barobari;

1,05 balldan 2,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 2,0 barobari;

2,05 balldan 3,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 2,5 barobari;

3,05 balldan 4,05 ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — bazaviy to'lov-kontrakt miqdorining 3,0 barobari.

Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda ushbu miqdorlar bo'yicha to'lov-kontrakt shartlarining birinchi o'quv yili uchun kamida 50 foizi bajarilgandan so'ng talabgor oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi.

28. To'plagan ballari Davlat komissiyasi tomonidan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirishda belgilanadigan minimal balldan kam bo'lmagan, biroq o'tish baliga 4 dan ortiq ball yetmagan va o'qish istagini bildirgan talabalarga birinchi o'quv yilida amalda o'rnatilgan to'lov-kontrakt miqdoriga nisbatan Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt miqdorida to'lovni amalga oshirish sharti bilan o'qishni ko'chirish huquqi beriladi.

Tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishini ko'chirish istagini bildirgan talaba Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda to'lov-kontrakt shartlarining birinchi o'quv yili uchun kamida 50 foizini bajargandan so'ng oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi.

29. Talabalar o'qishini xorijiy davlatlardagi oliy ta'lim tashkilotlaridan davlat oliy ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh bo'lmagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga ko'chirishga ruxsat etilmaydi.

Talabalar o'qishini O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan davlat oliy ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishlariga ko'chirish o'rnatilgan tartibda, tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun belgilangan tabaqalashtirilgan to'lov-kontraktning minimal miqdoriga teng bo'lgan to'lov asosida amalga oshiriladi.

30. Agentlikning o'qishni ko'chirish bo'yicha o'tkazilgan test sinovlari natijalari bo'yicha qaydnomasi oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning talabgorlarni test sinovlari natijalariga ko'ra belgilangan tartibda talabalikka tavsiya etish bo'yicha buyruqni rasmiylashtirishiga asos bo'ladi.

31. Turmush o'rtog'i yoki ota-onasi xorijiy davlatdagi davlat xizmatini o'tash joyi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasiga o'tkazilgan, Hukumat qarorlari va topshiriqlari hamda tizimida oliy ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan davlat buyurtmasi bilan xorijga o'qishga yuborilganlarning o'qishi oliy ta'lim tashkilotlariga imtihonlarsiz Davlat komissiyasi qaroriga asosan ko'chiriladi.

32. Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar o'qishining oliy ta'lim tashkilotlariga ko'chirilishiga ruxsat etilmaydi.

33. Xorijiy fuqarolarning o'qishi xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlaridan davlat oliy ta'lim tashkilotlariga suhbat asosida muayyan oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'iga asosan ko'chiriladi (ko'chirib tiklanadi). Ularning to'lov-kontrakt miqdorlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

#### **4-bob. Talabalar o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish**

34. Vazirlik va idora yoki Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq yuborilgan ko'rsatma xati asosida oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning talabaning darslarga qatnashishiga ruxsat etish to'g'risidagi buyrug'i rasmiylashtiriladi hamda ushbu oliy ta'lim tashkiloti tomonidan talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim tashkilotiga uning shaxsiy yig'majildini jo'natish uchun so'rovnoma yuboriladi.

Shaxsiy yig'majildni oliy ta'lim tashkilotiga taqdim etishning so'nggi muddati (20 ish kunidan kam bo'lmagan muddatda) oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) tomonidan belgilanadi.

35. So'rovnoma olingandan so'ng talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning talabalar safidan chetlashtirish haqidagi buyrug'i asosida uch kun muddatda talabaning shaxsiy yig'majildi (ro'yxati bilan) uni o'qishga qabul qilgan oliy ta'lim tashkilotiga yuboriladi yoki ariza asosida o'qishi ko'chirilgan talabaga beriladi.

Shaxsiy yig'majild jo'natilishi mumkin bo'lmagan hollarda (yopiq yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash) oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) tomonidan imzolangan va gerbli muhr bilan tasdiqlangan akademik ma'lumotnoma talabani o'qishga qabul qilgan oliy ta'lim tashkilotiga yuboriladi.

O'qishi ko'chirilishiga ruxsat etilgan talabaning maqsadli qabul asosida o'qiyotgani u o'qib turgan oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tekshiriladi va haqiqatda maqsadli qabul asosida o'qiyotgani aniqlangan taqdirda, uch kun muddatda so'rovnoma yuborgan oliy ta'lim tashkilotiga hamda talabaga mazkur talabaning o'qishi ko'chirilishi mumkin emasligi to'g'risida xat yuboriladi.

36. Talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim tashkilotida uning akademik ma'lumotnomasi, reyting daftarchasi, o'quv kartochkasi, shuningdek, yuborilayotgan hujjatlar ro'yxatining nusxasi qoldiriladi.

37. O'qishi ko'chirilishi ruxsat etilgan talabalarning arizalarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilishda oliy ta'lim tashkilotida tashkil etilgan Talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash bo'yicha komissiya (keyingi o'rinlarda — Komissiya) tomonidan talaba o'qigan va o'qishi

ko'chirilishi so'ralayotgan ta'lim yo'nalishlarining mos yoki turdosh ekanligi hamda ko'chirish uchun ushbu Nizomning 5-bandida qayd etilgan holatlarni asoslovchi hujjatlar sinchiklab tekshiriladi.

Ushbu holatlarni asoslovchi hujjatlar talab darajasida bo'lmagan taqdirda, oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning talabalikka qabul qilish to'g'risidagi buyrug'i rasmiylashtirilmaydi.

38. O'qishi ko'chirilgan fuqaroning taqdim etgan (topshirgan) hujjatlarining qalbakiligi yoki belgilangan talablarga javob bermasligi aniqlangan taqdirda, ushbu fuqaro talablikka qabul qilinmaydi (agar talabalikka qabul qilingan bo'lsa, talabalar safidan chetlashtiriladi).

39. Komissiya:

a) ushbu Nizomning 5-bandida qayd etilgan holatlarni asoslovchi hujjatlarning aslini tekshiradi;

b) o'qishni ko'chirishda haqiqatda qayd etilgan holat aniqlangan, ammo muayyan hududdagi oliy ta'lim tashkilotlarida mos va turdosh ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lmagan holatda talaba ro'yxatdan o'tishda tanlagan ta'lim yo'nalishi u o'qigan ta'lim yo'nalishidan mazmunan keskin farq qilsa, talabaning o'qigan ta'lim yo'nalishiga mazmunan yaqin bo'lgan ta'lim yo'nalishiga tavsiya etish bo'yicha;

qayd etilgan holat tufayli turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishiga o'qishni ko'chirish bo'yicha ro'yxatdan o'tgan, ammo ushbu oliy ta'lim tashkiloti joylashgan hududdagi oliy ta'lim tashkilotlarida mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari mavjud bo'lganda, ushbu mos yoki turdosh ta'lim yo'nalishiga tavsiya etish bo'yicha takliflarni, talabaning bu boradagi arizasini ilova qilgan holda bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik yoki idoraga (talaba ariza bilan murojaat qilgan kundan boshlab bir hafta muddatda) taqdim etadi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining ushbu bandning "b" kichik bandida qayd etilgan takliflari tizimida oliy ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirlik yoki idora tomonidan o'n kun muddatda ko'rib chiqiladi va tizimidagi oliy ta'lim tashkilotining mos yoki turdosh ta'lim yo'nalishiga ko'chirishga ruxsat etiladi. Bunda mos va turdosh ta'lim yo'nalishi boshqa vazirlik yoki idora tizimidagi oliy ta'lim tashkilotida mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu vazirlik yoki idoraga takliflar yuboriladi.

40. O'qishi ko'chirilgan fuqarolarni talabalar safiga qabul qilish to'g'risidagi oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'i ular tomonidan belgilangan muddatda va miqdorda shartnoma to'lovlari amalga oshirilgandan so'ng 10 kun muddatda qabul qilinadi.

41. Talabani boshqa oliy ta'lim tashkilotiga o'qishini ko'chirib tiklashda uning ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim tashkiloti roziligi talab etilmaydi.

### **5-bob. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini o'qishini qayta tiklash**

42. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining o'qishini qayta tiklash bo'yicha arizalarni qabul qilish bir o'quv yilida ikki marta:

kuzgi semestr o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin — 15-iyuldan 5-avgustgacha (5-avgust kuni ham);

bahorgi semestr o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin — 10-yanvardan 20-yanvargacha (20-yanvar kuni ham) muayyan oliy ta'lim tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

Arizalar oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan elektron shaklda ham qabul qilinishi mumkin.

43. O'qishini qayta tiklash istagini bildirgan talaba tomonidan arizasiga reyting daftarchasi yoki belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma yoxud transkript nusxasi ilova qilinadi.

44. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini o'qishini qayta tiklash to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish:

kuzgi semestr uchun — 6-avgustdan 31-avgustgacha;

bahorgi semestr uchun — 21-yanvardan 10-fevralgacha amalga oshiriladi.

45. Barcha o'quv shakllari bo'yicha talabalar safiga qayta tiklash to'lov-kontrakt asosida mazkur Nizom talablariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

Davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan yetimlar, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar hamda nogironligi bo'lgan bolalar, shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tagan (zaxiraga bo'shagan kunlaridan boshlab bir yil mobaynida), akademik ta'tildan belgilangan muddatda qaytgan shaxslar, Hukumat qarorlari va topshiriqlari hamda tizimida oliy ta'lim tashkilotlari bo'lgan

vazirlik va idoralar tomonidan davlat buyurtmasi bilan xorijga o‘qishga yuborilgan va belgilangan muddatda qaytgan talabalar, istisno tariqasida, o‘qishga (muayyan kursga) davlat grantlari o‘rinlariga qayta tiklanishi (davom ettirishi) mumkin.

46. Hukumatlararo yoki idoralararo yoxud oliy ta’lim tashkilotlararo kelishuv doirasida xorijiy oliy ta’lim tashkilotida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotida tahsil olgan ta’lim yo‘nalishiga mos bo‘lgan yo‘nalish bo‘yicha, bir yoki bir necha semestr o‘qib, belgilangan muddatda qaytgan talabalarining xorijiy oliy ta’lim tashkilotida ta’lim olgan muddatlarini (semestr) inobatga olgan holda (muayyan ta’lim yo‘nalishi va ta’lim shaklida, jumladan, davlat granti asosida tahsil olgan talabalar — davlat granti asosida) o‘qishini davom ettirishiga ruxsat etiladi.

Bunda muayyan ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rejalaridagi fanlar farqini tegishli o‘quv semestri davomida qayta o‘zlashtirishga ruxsat etiladi.

Belgilangan muddatdan kech qaytgan talabalar o‘qishining tiklanishi umumiy tartibda ko‘rib chiqiladi.

47. Oliy ta’lim tashkiloti rektori (direktori)ning talabani talabalar safiga qayta tiklashga, belgilangan tartib va muddatlarda darslarga qatnashishiga ruxsat etish to‘g‘risidagi buyrug‘i rasmiylashtiriladi.

To‘lov-kontrakt asosida o‘qishi tiklanganlarni talabalar safiga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi oliy ta’lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug‘i ular tomonidan belgilangan muddatda shartnoma to‘lovlari bajarilgandan so‘ng 10 kun muddatda qabul qilinadi.

48. Talabani o‘qishdan chetlashtirilgan o‘quv yilida (tahsil olgan kursiga, semestriga) o‘qishga qayta tiklashga (ko‘chirib tiklashga) yo‘l qo‘yilmaydi.

#### **6-bob. Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarini o‘qishdan chetlashtirish**

49. Talabani oliy ta’lim tashkilotidan chetlashtirishga quyidagilar asos bo‘ladi:

- a) o‘z xohishiga ko‘ra;
- b) o‘qishining boshqa ta’lim tashkilotiga ko‘chirilishi;
- v) oliy ta’lim tashkilotining ichki tartib-qoidalari hamda odob-axloq qoidalarini buzgani;
- g) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirgani (salomatligi sababli belgilangan shakldagi tibbiy ma’lumotnoma taqdim etilgan holat bundan mustasno);
- d) o‘qish uchun belgilangan to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmagani (to‘lov-kontrakt bo‘yicha tahsil olayotganlar uchun);
- e) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilgani;
- j) sud qaroriga ko‘ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzgani aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);
- z) kursda qoldirilgan talaba o‘qishini davom ettirish bo‘yicha belgilangan muddatlarda murojaat qilmaganda;
- i) talaba abituriyent sifatida oliy ta’lim tashkiloti qabul komissiyasiga taqdim etgan (topshirgan) hujjatlarining qalbakiligi yoki belgilangan talablarga javob bermasligi aniqlansa;
- k) vafot etgani.

Harbiy xizmatni o‘tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug‘ish, shuningdek, bolalarni parvarish qilish ta’tillari davrida hamda oilasining betob a’zosini (otasi, onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, turmush o‘rtog‘i, farzandi) parvarish qilish uchun talabaga belgilangan tartibda akademik ta’til berilishi mumkin.

50. Talabalar oliy ta’lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug‘i bilan quyidagi hollarda kursdan-kursga qoldiriladi:

belgilangan muddatlarda fanlarni o‘zlashtira olmaganida (akademik qarzdor bo‘lganda), o‘quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta’lim yo‘nalishlari bundan mustasno;

o‘quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta’lim yo‘nalishlarida semestr va o‘quv yili yakuni natijalari bo‘yicha GPA o‘tish ballini to‘play olmaganida;

malakaviy amaliyotga qatnashmagan, shuningdek, malakaviy amaliyot yakunlari bo‘yicha qoniqarsiz baholanganda.

51. Kursda qoldirilgan talaba to‘lov-kontrakt asosida o‘qishini o‘zlashtirmagan tegishli o‘quv semestri boshidan boshlaydi.

Talabalar o'quv yuklamasi hajmini aniqlashning shartli birliklari (kreditlar)ni o'tkazish va jamlash tizimi joriy etilgan oliy ta'lim tashkilotlarida akademik qarzdorligi tufayli kursda qoldirilgan talabalar tegishli o'quv semestridan boshlab faqat o'zlashtira olmagan fanlarini (modullarni) takroran o'qiydi.

Kursda qoldirilgan talaba o'qishni davom ettirishi uchun talabalar o'qishini qayta tiklash uchun belgilangan muddatlarda oliy ta'lim tashkilotiga ariza bilan murojaat qiladi.

Kursda qoldirilgan talaba ushbu Nizomning **49-bandidagi** holatlar bo'yicha talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin.

52. Talabalar o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklash) va qayta tiklash jarayonida shaxsiy yig'majildidagi hujjatlar to'liq taqdim etilmagan yoki taqdim etilgan hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilgani yoxud hujjatlar o'rnatilgan tartibda tasdiqlanmagani aniqlangan hollarda oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) mazkur hujjatlarni tekshirish va buyruq chiqarmaslik huquqiga ega.

53. Talabaning shaxsiy yig'majildida quyidagi hujjatlar bo'lishi talab etiladi:

umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich kasbiy ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich kasbiy ta'lim), shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi **Qonuni** kuchga kirguniga (2020-yil 24-sentabr) qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) tashkilotini tugatganligi haqidagi hujjat va uning ilovasining asli;

o'qigan oliy ta'lim tashkilotiga talabalikka qabul qilinganlik to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma;

oxirgi o'qigan kursiga o'tganlik to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma;

belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma yoki transkriptning asli;

talabalar safidan chetlatilganlik to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma;

talabaning tahsil olgan oliy ta'lim tashkilotiga yuborilgan so'rovnomaning javob xati.

54. Oliy ta'lim tashkilotiga o'qishini ko'chirgan yoki qayta tiklagan talabalarining shaxsiy yig'majildiga tegishli buyruqdan ko'chirma, ariza va akademik ma'lumotnoma yoki transkript tikib qo'yiladi.

55. O'quv rejalardagi fanlari bo'yicha farqlar aniqlanganda, talaba akademik qarzdor sifatida o'qishga qabul qilinadi.

Fanlardan akademik qarzdor talabalar muayyan semestr davomida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qiydi.

56. Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va ularni o'qishdan chetlashtirish to'g'risidagi taqdim etilgan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi va ularning qonuniyligi uchun javobgarlik oliy ta'lim tashkilotlariga yuklanadi.

Zarurat bo'lganda rektor hujjatlarni yuborgan oliy ta'lim tashkilotlaridan rasmiy xat orqali ma'lumotlar to'g'riligini tasdiqlashni so'rashi mumkin.

## **7-bob. Yakunlovchi qoida**

57. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qaroriga  
4-ILOVA

## **Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining akademik mobilligini tashkil etish tartibi to'g'risida**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalarining O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda

— oliy ta'lim tashkilotlari) va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan akademik mobilligini tashkil qilish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Qonunchilik hujjatlari, jumladan, ushbu Nizomda ko'rsatilmagan holatlar oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan imzolangan o'zaro kelishuv shartnomalariga muvofiq tartibga solinadi.

2. Akademik mobillik quyidagi maqsadlarda tashkil etiladi:

talabalarga yetakchi ilmiy maktablar shakllangan oliy ta'lim tashkilotlarida o'qish imkoniyatini yaratish;

talabalarining bilim sifati va rivojlanish darajasini oshirish;

talabalarining boshqa hududda tahsil olish zaruratini inobatga olgan holda, ta'lim olish imkoniyatini yaratish;

xorijiy va mahalliy ta'lim tizimlari yutuq hamda tajribalari bilan tanishish;

mutaxassislik bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni egallash;

oliy ta'lim tashkilotining hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

ta'limning integratsiyalashuvi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

3. Ta'lim shakli, kursi va ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)ning mos bo'lishi oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining akademik mobilligini amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**akademik mobillik** — oliy ta'lim tashkiloti talabasining mahalliy (respublika hududidagi) yoki tashqi (xalqaro, xorijiy) boshqa oliy ta'lim tashkilotiga muayyan vaqt mobaynida o'qish maqsadida borishi (yuborilishi);

**kreditlarni tan olish** — talabaning akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lim tashkiloti ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim tashkilotiga ko'chirish va tan olish;

**mobillik dasturi** — ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim tashkiloti o'rtasida o'zaro ta'lim kelishuvi asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

**ta'lim kelishuvi** — ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim tashkiloti o'rtasida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi asosida talabaning muayyan vaqt mobaynida tahsil olib borishini ta'minlovchi hamkorlikda imzolangan hujjat;

**transkript** — ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan, belgilangan shakldagi hujjat;

**qabul qiluvchi oliy ta'lim tashkiloti** — o'zaro ta'lim kelishuviga muvofiq tashkil etilgan akademik mobillik dasturi asosida talabani o'qishga qabul qiluvchi oliy ta'lim tashkiloti;

**yuboruvchi oliy ta'lim tashkiloti** — o'zaro ta'lim kelishuviga muvofiq tashkil etilgan akademik mobillik dasturi asosida talabani o'qishga yuboruvchi oliy ta'lim tashkiloti.

## **2-bob. Akademik mobillikni tashkil qilish**

5. Akademik mobillikni amalga oshirish muddati oliy ta'lim tashkilotlarining o'zaro kelishuv shartnomasiga asosan kamida bir semestr yoki ko'pi bilan ikki semestr bo'lishi lozim (xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, istisno tariqasida, muddatga o'zgartirish kiritilishi mumkin).

Talaba akademik mobillikda oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shimcha shartnomalariga muvofiq ikkinchi marta ishtirok etishi mumkin.

6. Akademik mobillik oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida imzolangan o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

7. Akademik mobillikni amalga oshirishning umumiy jarayoni oliy ta'lim tashkilotining o'quv-uslubiy bo'limi (boshqarmasi) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Bunda xorijiy oliy ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda akademik mobillikni tashkil etish oliy ta'lim tashkilotining xalqaro aloqalar bo'limi (boshqarmasi) bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Akademik mobillikni tashkil etish va muvofiqlashtirish bo'yicha oliy ta'lim tashkiloti bo'limlari (boshqarmalari)ning vazifalari oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) tomonidan belgilanadi.

Akademik mobillikni tashkil etishga umumiy rahbarlik o'quv ishlari bo'yicha prorektor (direktor o'rinbosari), boshqa tashkiliy ishlar tegishli bo'lim boshlig'i va fakultet dekanlari zimmasiga yuklatiladi.

8. Akademik mobillik bo'yicha talabalar har bir oliy ta'lim tashkilotining mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinadi yoki yuboriladi.

9. Oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida akademik mobillik bo'yicha alohida bo'lim yaratiladi. Ushbu bo'limda hamkor oliy ta'lim tashkilotlari, akademik mobillik dasturlari (ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar kesimida), akademik mobillik doirasida o'qish istagini bildirganlar uchun ariza topshirish tartibi, muddatlari, taqdim etiladigan (elektron shaklda yuklanadigan) hujjatlar, arizalarni ko'rib chiqish bosqichlari va boshqa ma'lumotlar joylashtiriladi.

Shu bilan birga, mazkur ma'lumotlar mas'ul va tegishli bo'limlar tomonidan doimiy monitoring qilinib, yangiliklar bilan to'ldirib boriladi.

10. Professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning akademik mobilligini tashkil etish oliy ta'lim tashkilotlarining o'zaro kelishuv shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

11. Talabalar akademik mobillik uchun yuboruvchi va qabul qiluvchi oliy ta'lim tashkiloti rektorlari (direktorlari) tomonidan alohida belgilangan shartlar asosida saralanadi.

Bunda oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) tomonidan talabalarning qobiliyatlari, o'zlashtirish ko'rsatkichlari hamda oliy ta'lim tashkilotining mavjud imkoniyatlari (moddiy-texnik bazasi, professor-o'qituvchilar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda akademik mobillikning professor-o'qituvchilar o'quv yuklamasiga ta'siri) inobatga olinadi.

Talabgorlarni saralashning adolatli, shaffof, manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmagan holda o'tkazilishi oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari (direktorlari) zimmasiga yuklatiladi.

12. Ta'lim sifati hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining vakillari tomonidan nazorat qilinishi mumkin.

13. Talaba hamkor oliy ta'lim tashkilotida o'qish davri yakunlangandan so'ng o'zlashtirgan fanlari, baho (ball) yoki kreditlarni tasdiqlovchi transkriptni asosiy ta'lim olayotgan oliy ta'lim tashkiloti o'quv-uslubiy bo'limi (boshqarmasi)ga taqdim etadi.

14. Yuboruvchi oliy ta'lim tashkilotining o'quv rejasidagi muayyan semestr fanlari bo'yicha talabalar tomonidan akademik mobillik davrida to'plangan kreditlar mos ravishda tan olinadi.

Talaba akademik mobillik davrida belgilangan kreditlarni to'play olmagan yoki fanlar farqi aniqlangan taqdirda, yuboruvchi oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) yozma ruxsati bilan ushbu fanlardan kreditlarni o'zi tahsil oladigan oliy ta'lim tashkilotida pulli asosda o'zlashtirishi mumkin.

Yuboruvchi oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) akademik mobillikda ishtirok etgan talabaning to'plagan kreditlari va ularni tan olish, o'zlashtirmagan fanlarga ko'ra akademik qarzdor deb hisoblash, ularni o'zlashtirish shartlarini belgilaydi.

15. Talabalar birinchi kursning birinchi semestrda, bitiruvchi kursning so'nggi semestrda, shuningdek, kursdan-kursga qolgan talaba so'nggi o'qigan semestrda keyingi semestrda tahsil olish bo'yicha akademik mobillik dasturida ishtirok etishi mumkin emas.

16. Moliyaviy masalalar, jumladan, akademik mobillikda ishtirok etayotgan talabalarning kontrakt, stipendiya to'lovlari va boshqa xarajatlarni moliyalashtirish oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan imzolangan o'zaro kelishuv shartnomasida belgilangan shartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

### **3-bob. Hamkor oliy ta'lim tashkilotlarida akademik mobillikni tashkil etish tartibi**

17. Mos yoki turdosh soha bo'yicha akademik mobillikni amalga oshirmoqchi bo'lgan talaba hamkor oliy ta'lim tashkiloti bilan o'zaro kelishuv shartnomasi bo'lgan taqdirda, quyidagi ma'lumotlar to'plamini ilova qilgan holda rektor nomiga ariza bilan murojaat qiladi (kuzgi va bahorgi semestr oxirida elektron tarzda):

talabaning F.I.O., fakulteti va guruhi;

safardan maqsad;

borishi mo'ljallangan joy;

safarga borish muddati (akademik mobillik davomiyligi kamida bir semestr yoki ko'pi bilan ikki semestr bo'lishi lozim);

safar bilan bog'liq xarajatlarning moliyalashtirish manbalari.

18. Mobillik maqsadida safarga yuborish bo'yicha ijobiy qaror qilingan taqdirda, belgilangan tartibda safarga yuborish haqidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

19. Akademik mobillik dasturini yakunlash shartlari hamkor oliy ta'lim tashkilotining akademik taqvimiga muvofiq individual ravishda belgilanadi.

#### **4-bob. Yakunlovchi qoida**

20. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qaroriga  
5-ILOVA

### **O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2017-yil 21-noyabrdagi 930-son qarorida:

a) 1-ilovada:

1-banddagi "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari" so'zlari "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni" so'zlari bilan almashtirilsin;

6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"6. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limga talabalarni qabul qilish Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi";

11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"11. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta'lim talabalarini talabalar safidan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan amalga oshiriladi";

13-banddagi, 31-bandning birinchi xatboshisidagi hamda 32-banddagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi" so'zlari "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 2-ilovada:

1-banddagi "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari" so'zlari "O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni" so'zlari bilan almashtirilsin;

4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"4. Kechki (smenali) ta'limga talabalarni qabul qilish Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi";

10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"10. Kechki (smenali) ta'lim talabalarini talabalar safidan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan amalga oshiriladi";

12-banddagi, 30-bandning birinchi xatboshisidagi hamda 31-banddagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi" so'zlari "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin.

2. Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2018-yil 3-apreldagi 261-son qarorida:

a) 2-band o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

b) 1-ilovada:

2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Ushbu Nizom o‘qishga qabul qilish jarayonlari alohida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tartibga solinadigan oliy ta’lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi”;

3-bandda:

ikkinchi, to‘rtinchi va beshinchi xatboshilaridagi “Davlat test markazi” so‘zlari tegishli kelishikda “Bilim va malakalarni baholash agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

to‘qqizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi vakili (keyingi o‘rinlarda Bilim va malakalarni baholash agentligi vakili deb ataladi) — O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi (keyingi o‘rinlarda Bilim va malakalarni baholash agentligi deb ataladi) direktorining buyrug‘i bilan tayinlanadigan, test sinovlari o‘tkaziladigan tegishli hudud va binoda belgilangan vazifa va majburiyatlar bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarga umumiy rahbarlik qiluvchi hamda test sinovi ishtirokchilarining vazifalariga muvofiq harakatini nazorat qiluvchi va amaliy yordam ko‘rsatuvchi xodim”;

4-bandning birinchi xatboshisi, 5-band, 7-bandning birinchi xatboshisi, 17-band, 3-paragraf nomi, 28-band, 5-paragraf nomi, 32 — 36-bandlar, 38, 39, 54 va 58-bandlardagi “Davlat test markazi” so‘zlari tegishli kelishikda “Bilim va malakalarni baholash agentligi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

6-bandning birinchi xatboshisidagi “kunduzgi va kechki (smenali) ta’lim shakli uchun” so‘zlari chiqarib tashlansin;

9-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, baholash mezonlari, test topshiriqlari soni va javoblar varaqasi namunasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda test sinovlari boshlanishidan kamida 6 oy oldin e’lon qilinadi”;

12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Abituriyentning test sinovida to‘plagan ballari haqidagi ma’lumot test sinovi o‘tkazilgan kunning ertasiga, uning talabalikka tavsiya etilganligi yoki etilmaganligi bo‘yicha belgilangan tartibda tasdiqlangan tanlov natijasi ro‘yxatdan o‘tishning ikkinchi bosqichi (abituriyentlar tomonidan oliy ta’lim muassasasi, ta’lim yo‘nalishi va ta’lim shaklini tanlash jarayoni) to‘liq yakunlangandan keyin bir hafta muddat ichida Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi”;

15-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“15. Binolarni tayyorlash, videokuzatuvlar orqali jamoatchilik, shu jumladan, abituriyentlar ota-onalarining kirish test sinovlari jarayonini onlayn tarzda kuzatib borishlari, abituriyentlarni shaxsni identifikatsiyalash vositalari hamda videofiksatsiya qurilmalari orqali binoga tegishli hududga kiritish, binolardagi va xizmat postlaridagi video yozuvlarning saqlanishi uchun sharoitlar yaratish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari hamda O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Ichki ishlar vazirligining “Xavfsiz shahar” tizimlarini rivojlantirish markazi tomonidan ta’minlanadi.

Ichki ishlar vazirligining “Xavfsiz shahar” tizimlarini rivojlantirish markazi tomonidan tegishli joylar shaxsni identifikatsiyalash vositalari (videofiksatsiya va barmoq izlarini tekshiruvchi vositalar), videokuzatuv, mobil aloqa to‘lqinini to‘suvcchi qurilmalar bilan ta’minlanadi hamda Ichki ishlar vazirligi o‘tkazilgan test sinovlari jarayoni bo‘yicha videoyozuvlarni saqlaydi va ularni test sinovlari o‘tkazilgan kunning ertasiga Bilim va malakalarni baholash agentligiga topshiradi”;

2-paragraf hamda 24 — 27-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

29-bandda:

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“har yili 30-iyunga qadar test sinovlari o‘tkaziladigan binolarni mazkur bobning 1-paragrafida belgilangan talablar bo‘yicha test sinovlariga tayyor holatga keltirish hamda bu haqda Bilim va malakalarni baholash agentligiga ma’lumot berish”;

sakkizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“test sinovlari o‘tkaziladigan binolarni sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga to‘liq javob berishini ta‘minlash”;

**31-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“31. Test sinovlari o‘tkaziladigan hududga yoki binoga kirish joylarida tashkil etilgan nazorat xizmati postlarida xizmat olib borayotgan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Raqamli texnologiyalar vazirligi xodimlari tomonidan tekshiruv vaqtida abituriyent va guruh nazoratchilarida mikro kalkulyator, lug‘at, jadval, kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari, shpargalkalar mavjudligi, shuningdek, barmoq izlari va fotosurati tekshirilgan vaqtda shaxsi tasdiqlanmaganligi aniqlangan taqdirda, bu haqida Bilim va malakalarni baholash agentligining vakili xabardor qilinib, ularni test sinovlariga kiritmaslik to‘g‘risida dalolatnoma rasmiylashtiradi”;

**48-band** quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Test sinovlari davomida abituriyent sog‘ligi yomonlashishi sababli tez tibbiy yordam xodimlari tomonidan olib ketilsa yoki o‘z ixtiyori bilan test o‘tkazilayotgan hududdan chiqib ketsa, uning test sinovi natijasi sog‘ligi yomonlashishiga qadar javoblar varaqasiga belgilagan javoblari asosida hisoblanadi. Unga boshqa vaqtda test sinovini qayta topshirishga ruxsat berilmaydi”;

**52-bandning beshinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“test materiallarini binodan tashqariga olib chiqsa yoki olib chiqishga urinsa, test materiallarini tarqatsa, test topshiriqlari kitobi varag‘ini yirtsa”;

**53-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“53. Test sinovlari natijasidan norozi bo‘lgan abituriyentlar yakuniy tanlov natijalari e‘lon qilingan kunning ertasidan boshlab o‘n kun muddatda O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan apellyatsiya komissiyasiga Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-sayti orqali elektron shaklda apellyatsiya shikoyatini berish huquqiga ega”;

**57-bandning birinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“57. Apellyatsiya shikoyati apellyatsiya komissiyasi tomonidan faqat abituriyent ishtirokida, uning test sinovi jarayonida javoblar varaqasiga belgilagan javoblari to‘g‘riligini asoslovchi yozma ravishdagi bayoni asosida ko‘rib chiqiladi. Abituriyentning yozma ravishdagi bayoni o‘z tasdig‘ini topmagan bo‘lsa, apellyatsiya komissiyasi test sinovlari natijalarini o‘zgarishsiz qoldirish va apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi”;

**12 va 13-ilovalar** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

v) **3-ilova** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 13-maydagi 395-son **qarorida**:

a) 1-bandning “g” **kichik bandi** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) **2-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab test sinovlari (kasbiy (ijodiy) imtihon) majmuasiga chet tili fani kiritilgan barcha bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga hujjat topshirgan va milliy yoki xalqaro sertifikatning quyidagi darajalariga ega bo‘lgan abituriyentlarga ushbu fandan imtihonlarsiz belgilangan maksimal ball berilishi nazarda tutilsin:

ingliz tili uchun — milliy sertifikat yoki International English Language Testing System (academic IELTS 5,5), Test of English as a Foreign Language (TOEFL IBT 72), Cambridge English Qualifications (B2 First, C1 Advanced, C2 Proficiency) xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

yapon tili uchun — milliy sertifikat bo‘yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

nemis tili uchun — milliy sertifikat yoki Goethe-Zertifikat, Deutsches Sprachdiplom (DSD), Test Deutsch als Fremdsprache (Test DAF) xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

fransuz tili uchun — milliy sertifikat bo‘yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori;

boshqa tillar uchun — milliy sertifikat yoki xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha tilni bilish darajalari B2 va undan yuqori”.

4. Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasining professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020-yil 11-noyabrda 715-son qarorining **2-bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Belgilab qo'yilsinki:

professional ta'lim muassasalariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan o'quvchilar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlarining o'qitish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi;

o'qishga kirishda davlat granti uchun o'tish balining 80 foizini to'plagan “Kambag'al oilalar reyestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari qabul parametrlaridan tashqari qo'shimcha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinadi;

davlat granti asosida professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan shaxslarni o'qitish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi”.

5. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-avgustdagi 527-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi hisobidan tijorat banklari orqali oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lim kreditlarini ajratish tartibi to'g'risidagi **nizom** quyidagi mazmundagi 2<sup>4</sup>-band bilan to'ldirilsin:

“2<sup>4</sup>. “Kambag'al oilalar reyestri”ga kiritilgan oilalarning talaba farzandlari uchun 2024/2025 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tashkilotlarida fanlarni o'zlashtirishning o'rtacha ko'rsatkichi (GPA (grade point average) ko'rsatkichi) “3,5” va undan yuqori bo'lganda, keyingi o'quv yili uchun foizsiz ta'lim krediti ajratiladi.

Bunda oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olayotgan kambag'al oilalarning talaba farzandlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining “Kambag'al oilalar reyestri” axborot tizimi orqali aniqlanadi hamda mazkur axborot tizimi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish” (HEMIS) axborot tizimiga o'zaro integratsiya qilinadi”.

6. Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son **qarorida**:

a) 1-bandning “a” kichik bandi **ikkinchi xatboshisidagi** “asosiy olimpiadalar, qo'shimcha respublika olimpiadalari, onlayn olimpiadalar” so'zlari “asosiy olimpiadalar, muhandislik-ixtirochilik olimpiadalari, qo'shimcha respublika olimpiadalari, onlayn olimpiadalar” so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-ilovada:

**2-bandda:**

quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“**muhandislik-ixtirochilik olimpiadasi** — o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishini sinovdan o'tkazish, o'quvchilarda muhandislik, ixtirochilik va konstruktorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan olimpiada”;

**uchinchi — to'qqizinchi xatboshilar** tegishli to'rtinchi — o'ninchi xatboshilar deb hisoblansin;

quyidagi mazmundagi 3<sup>1</sup>-bob bilan to'ldirilsin:

### **“3<sup>1</sup>-bob. Muhandislik-ixtirochilik olimpiadalari**

46<sup>1</sup>. Maktab o'quvchilari o'rtasida ijodkorlik, ixtirochilik hamda konstruktorlik ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida muhandislik-ixtirochilik olimpiadalari tashkil qilinadi.

Muhandislik-ixtirochilik olimpiadalari o'g'il va qiz bola o'quvchilar uchun alohida-alohida o'tkaziladi hamda g'oliblar alohida-alohida aniqlanadi.

Har yili avgust oyida Vazirlik tomonidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda zamonaviy muhandislik sohalaridan kelib chiqib, joriy o'quv yilida bo'lib

oʻtadigan muhandislik-ixtirochilik olimpiadasining yoʻnalishlari, tanlov bosqichlari, turlari, shartlari, baholash mezonlari hamda gʻoliblari qoʻshimcha davlat granti asosida oʻqishga qabul qilinadigan oliy taʼlim muassasalarining bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari roʻyxati eʼlon qilinadi.

Muhandislik-ixtirochilik yoʻnalishidagi olimpiada gʻoliblari qoʻshimcha davlat granti asosida oʻqishga qabul qilinadigan oliy taʼlim muassasalarining bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari roʻyxati Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

46<sup>2</sup>. Muhandislik-ixtirochilik olimpiadalarining tashkiliy jarayonlari asosiy olimpiada shartlari kabi moliyalashtiriladi va gʻoliblari ragʻbatlantiriladi.

Muhandislik-ixtirochilik olimpiadasi gʻoliblari va bir nafar jamoa rahbari (oʻqituvchi) belgilangan mukofot pullari bilan, quyi sinf oʻquvchilari esa tashkilotchilarning qimmatbaho sovgʻalari bilan taqdirlanadi.

46<sup>3</sup>. Muhandislik-ixtirochilik olimpiadalarining maktab oʻquvchilari oʻrtasida respublika bosqichida gʻoliblikni qoʻlga kiritgan bitiruvchi sinf oʻquvchilariga davlat oliy taʼlim muassasalarining olimpiada yoʻnalishiga mos va turdosh bakalavriat taʼlim yoʻnalishlariga imtihonsiz qoʻshimcha davlat granti asosida oʻqishga qabul qilish huquqini beruvchi hamda uch yil muddat davomida amal qiluvchi sertifikat taqdim qilinadi”.

7. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-avgustdagi 457-son qarori bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Taʼlim kreditini moliyalashtirish jamgʻarmasi hisobidan oliy, oʻrta maxsus va professional taʼlim tashkilotlarida xotin-qizlarning toʻlov-kontrakt asosida oʻqishi uchun taʼlim kreditlarini ajratish tartibi toʻgʻrisidagi **nizom** quyidagi mazmundagi 2<sup>4</sup>-band bilan toʻldirilsin:

“2<sup>4</sup>. “Kambagʻal oilalar reyestri”ga kiritilgan oilalarning talaba farzandlari uchun 2024/2025 oʻquv yilidan boshlab oliy taʼlim tashkilotlarida fanlarni oʻzlashtirishning oʻrtacha koʻrsatkichi (GPA (grade point average) koʻrsatkichi) “3,5” va undan yuqori boʻlganda, keyingi oʻquv yili uchun foizsiz taʼlim krediti ajratiladi.

Bunda oliy taʼlim tashkilotlarida taʼlim olayotgan kambagʻal oilalarning talaba farzandlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining “Kambagʻal oilalar reyestri” axborot tizimi orqali aniqlanadi hamda mazkur axborot tizimi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Oliy taʼlim jarayonlarini boshqarish” (HEMIS) axborot tizimiga oʻzaro integratsiya qilinadi”.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qaroriga  
6-ILOVA

## **Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblanayotgan baʼzi qarorlari**

### **ROʻYXATI**

1. Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida” 2012-yil 1-iyundagi 160-son qaroriga ilovaning **2-bandi**.

2. Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistraturasiga qabul qilish tartibi toʻgʻrisidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 2013-yil 16-sentabrdagi 255-son qarorining **3-bandi**.

3. Vazirlar Mahkamasining “Oliy taʼlim muassasalariga kirish test sinovlariga tayyorgarlik jarayoni optimallashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida” 2016-yil 16-iyundagi 209-son **qarori**.

4. Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish, shuningdek baʼzilarini oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblash toʻgʻrisida” 2017-yil 11-maydagi 270-son qaroriga 1-ilovaning **39-bandi**.

5. Vazirlar Mahkamasining “Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2017-yil 2-iyundagi 347-son qaroriga 2-ilovaning **5-bandi**.

6. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2017-yil 20-iyundagi 393-son [qarori](#).

7. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2017-yil 12-sentabrdagi 712-son qaroriga ilovaning [38-bandi](#).

8. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a‘zolariga oliy ta’lim muassasalariga kirishda imtiyozlar berish to‘g‘risida” 2017-yil 14-noyabrdagi 914-son qarorining [5-bandi](#) va unga [3-ilova](#).

9. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2018-yil 9-yanvardagi 18-son [qarori](#).

10. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2018-yil 5-iyuldagi 508-son qaroriga 1-ilovaning [39-bandi](#).

11. Vazirlar Mahkamasining “Alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga kirish test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 27-iyuldagi 588-son [qarori](#).

12. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash haqida” 2018-yil 9-avgustdagi 638-son qaroriga ilovaning [15-bandi](#).

13. Vazirlar Mahkamasining “Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2017-yil 20-iyundagi 393-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2019-yil 27-apreldagi 360-son [qarori](#).

14. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining faoliyatini kuchaytirish to‘g‘risida” 2019-yil 9-iyuldagi 572-son qaroriga 2-ilovaning [1-bandi](#).

15. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash haqida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 15-martdagi PF-5690-son Farmoni)” 2019-yil 21-oktabrdagi 886-son qaroriga ilovaning [15-bandi](#).

16. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son qarori)” 2019-yil 6-dekabrda 973-son qaroriga 1-ilovaning [6-bandi](#).

17. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-son qarori)” 2019-yil 20-dekabrda 1022-son qaroriga ilovaning [2-bandi](#).

18. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 21-maydagi PF-5723-son Farmoni)” 2019-yil 28-dekabrda 1046-son qaroriga ilovaning [166-bandi](#).

19. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasiga o‘qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 5-iyundagi 358-son qarori.

20. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o‘qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2020-yil 23-iyundagi 402-son qarorining [2-bandi](#).

21. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3726-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2020-yil 16-iyundagi PQ-4753-son qarori)” 2020-yil 10-avgustdagi 470-son qaroriga ilovaning [2-bandi](#).

22. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori)” 2020-yil 21-avgustdagi 499-son qaroriga ilovaning [2-bandi](#).

23. Vazirlar Mahkamasining “Test tizimini takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 17-sentabrdagi 562-son qaroriga ilovaning [1-bandi](#).

24. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ro‘yxatga olish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 28-sentabrdagi 593-son qaroriga 4-ilovaning [39-bandi](#).

25. Vazirlar Mahkamasining “Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qaroriga 3-ilovaning [1-bandi](#).

26. Vazirlar Mahkamasining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosati tubdan takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2020-yil 14-dekabrdagi 777-son qaroriga 1-ilovaning [19-bandi](#).

27. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari talabalariga akademik ta’til berish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 3-iyundagi 344-son qarorining [4-bandi](#) va unga [2-ilova](#).

28. Vazirlar Mahkamasining “Oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 22-oktabrdagi 655-son qarorining [4-bandi](#) va unga [3-ilova](#).

29. Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 25-oktabrdagi 656-son qaroriga 2-ilovaning [6-bandi](#).

30. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish, kursantlarni o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 27-dekabrdagi 775-son qaroriga 3-ilovaning [1-bandi](#).

31. Vazirlar Mahkamasining “Madaniyat, san‘at va sport yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun belgilangan imtiyozlar optimallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvardagi 20-son qaroriga ilovaning [2-bandi](#).

32. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” 2021-yil 20-apreldagi O‘RQ-682-son Qonuni)” 2022-yil 4-apreldagi 153-son qaroriga ilovaning [417](#) va [512-bandlari](#).

33. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish jarayonini yanada soddalashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2022-yil 14-iyuldagi 386-son qarori.

34. Vazirlar Mahkamasining “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2022-yil 9-avgustdagi 438-son qaroriga 1-ilovaning **9-bandi**.

35. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2022-yil 28-sentabrdagi 541-son qaroriga ilovaning **5-bandi**.

36. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limga qabul qilish va o‘qitish tartibini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 6-apreldagi 143-son qaroriga 4-ilovaning **4-bandi**.

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.09.2025-y., 09/25/578/0826-son)*